
INFORMATIKA 8
VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

O‘QITUVCHI KITOBI



INFORMATIKA

VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

O‘QITUVCHI KITOBI

8-SINF

Umumiy o‘rta ta'lim maktablari o‘qituvchilari uchun o‘quv-metodik qo‘llanma
O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan

«NASHRIYOT UYI TASVIR»

TOSHKENT – 2020

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

UO‘K 004(075.3)
KBK 32.81O‘zb-72
K 65

Fayziyeva, M. R.
Informatika va axborot texnologiyalari. 8-sinf: O‘qituvchilar uchun o‘quv-metodik qo‘llanma / M. R. Fayziyeva, D. M. Sayfurov.
– Toshkent: Tasvir, 2020. – 112 b.
Professor F. M. Zakirovaning umumiy tahriri ostida.

Taqrizchilar:

M. E. Mamarajabov – Nizomiy nomidagi TDPU “Informatika va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;

G. N. Ibragimova – Nizomiy nomidagi TDPU “Pedagogika va psixologiya” fakulteti dekani, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

B. S. Xurramov – Surxondaryo viloyati XTXQTMOHM “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.



Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi

ISBN 978-9943-5798-8-0

© O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2020.
© «Nashriyot uyi TASVIR», 2020.
© «KolorPak» MChJ, 2020.

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

MUNDARIJA

I. «INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI» FANI DARSLIGIDAN FOYDALANISH
I.1. Darslikdan foydalanish yo'riqnomasi.....5

II. ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
II.1. Blended learning (aralash ta'lim) texnologiyalari..... 11
II.2. Webinar(vebinar) texnologiyasi.....12
II.3. Ta'limni boshqaruv tizimlari 14
II.4. Google formsda test va anketa so'rovnomalari yaratish texnologiyalari.....19

III. MUAMMOGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
III.1. "Aqliy hujum" metodi.....23
III.2. "Munozarali darslar" metodi.....24

IV. HAMKORLIKDAGI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
IV.1. "Kichik guruhlarda ishlash".....25

V. LOYIHAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
V.1. "Loyiha" metodi.....27

VI. INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
VI.1."Konferensiya" metodi.....28
VI.2. "INSERT" metodi 28
VI.3. "SWOT-tahlil" metodi 29
VI.4 «Idrok xaritasi (Mind map)» metodi.....30

VII. BAHOLASH
VII.1. Baholash turlari.....31
VII.2. Nazorat testlari 33

VIII. «INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI» FANIDAN DARSLARNI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI
VIII.1. Onlayn shaklda dars berish texnologiyasi ...39
VIII.2. Aralash ta'lim shaklida dars berish texnologiyasi va dars ishlanmalari.....41
1-dars. SMM (social media marketing – ijtimoiy media marketing) haqida.....41
2-dars. SMM platformalar bilan tanishish. ..... Facebook tarmog'i.....43
3-dars. SMM platformalar bilan tanishish. Youtube sayti.....45
4-dars. SMM platformalar bilan tanishish. ..... Telegram tarmog'i 47
5-dars. SMM platformalar bilan tanishish. Instagram tarmog'i.....49
6-dars. SMMni internet tarmog'ida harakatlantirish 51
7-dars. Amaliy ish 54
8-dars. SMM asosida tadqiqot loyihalarini boshqarish 56
9-dars. SMM asosida tadqiqot loyihalarini boshqarish 58
10-dars. SMM asosida tadqiqot loyihalarini boshqarish 60
11-dars. CMS (content management systems) haqida 62
12-dars. CMS platformalari bilan tanishish.....65
13-dars. Amaliy ish.....67
14-dars. CMSda maqsadga yo'naltirilgan web-saytlarni yaratish.....69
15-dars. Amaliy ish.....71
16-dars. Web-sayt dizayni bilan ishlash 73
17-dars. Amaliy ish.....75
18-dars. Web-sayt tarkibi bilan ishlash.....77
19-dars. Amaliy ish.....79
20-dars. LMS (learning management systems – ta'limni boshqaruv tizimlari) haqida.....81
21-dars. LMS platformalari turlari va vazifalari.....83
22-dars. Amaliy ish.....85
23-dars. LMS asosida masofaviy ta'lim olish. 87
24-dars. Amaliy ish. 89
25-dars. LMS asosida masofaviy ta'lim olish. 91
26-dars. Amaliy ish.....93
27-dars. MOOC (massive open online courses — .95
Ommaviy ochiq onlayn kurslar) haqida.....95
28-dars. MOOC platformalarining turlari va vazifalari.....97
29-dars. Amaliy ish.....99
30-dars. MOOC asosida masofaviy ta'lim olish.....101
31-dars. Amaliy ish.....103
32-dars. Web-freelance haqida tushuncha.....105
33-dars. Web-freelance saytlari bilan tanishish.....107
34-dars. Amaliy ish.....109
Foydalanilgan adabiyotlar va web-saytlar ro'yxati 111

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

KIRISH

Aziz ustozlar! Mazkur qo‘llanma 8-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” darsligi asosida tayyorlandi va o‘qituvchilar uchun metodik yordam sifatida tavsiya etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” asosida qator reja va loyihalar ishlab chiqildi.

Xususan, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun yangi avlod darsliklarini yaratish va bunday darsliklarni jahon standartlariga moslashtirish konsepsiyalari ishlab chiqildi. Konsepsiya asosida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishning quyidagi yangi asosiy vazifalari belgilab berildi:

– “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishning zamonaviy shakl, metod va texnologiyalarini qo‘llash;

– o‘quvchilar masofadan turib yangi bilimlarni egallashi, doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi uchun tizim yaratish va uni yo‘lga qo‘yich;

– ta’lim jarayonida tayanch bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni doimiy nazorat qilib turish, o‘quvchilar qobiliyatiga qarab kasbiy yo‘naltirish ishlarini olib borish.

Yangi avlod darsliklar majmuasining yaratilishi o‘quvchilarning mustaqil bilim olishini yo‘lga qo‘yishga hamda o‘qituvchilarga metodik yordam berishga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchilarga:

1) an’anaviy (klassik);

2) onllayn;

3) aralash (blended learning) ta’lim berish shakllarini taqdim etadi.

Bugungi ta’lim tizimi eski mazmundagi o‘quv dasturlaridan voz kechib, innovatsion raqamli iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradigan o‘qitish tizimiga o‘tmoqda. Shunga mos ravishda, ta’lim berishga yondashuvlar ham o‘zgarib, internet va axborot texnologiyalari imkoniyatlari tufayli o‘qituvchilar oddiy bilim beruvchidan, asosiy tashkilotchiga aylanmoqdalar.

Ayrim o‘qituvchilar uchun bunday o‘zgarish oson kechmaydi. Bunday davrda raqobatbardoshlik, hamkorlik munosabatlarini o‘rnata olish qobiliyati zarur bo‘lganligi sababli, o‘quv dasturlari mazmuni tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, ijodiy yaratuvchanlik va hamkorlik ko‘nikmalarini, ya’ni kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Mazkur metodik qo‘llanmada o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalari, ya’ni bilim olish ehtiyojini, asosiy o‘quv-ilmiy va umummadaniy kompetensiyalarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko‘nikmalari, tanqidiy va ijodiy fikrlash, kasb tanlashga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatish imkonini beruvchi ba’zi zamonaviy texnologiyalar va o‘qitish metodlarini keltirmoqdamiz.

Ta’kidlash joizki, har qanday pedagogik texnologiya va metodlarning samaradorligi uni qo‘llayotgan o‘qituvchining ijodiy va kasbiy mahoratiga bog‘liq.

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

I. «INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI» FANI DARSLIGIDAN FOYDALANISH

I.1. Darslikdan foydalanish yo'riqnomasi

8-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan "Informatika va axborot texnologiyalari" darsligi o'z ichiga 34 ta darsni qamrab olgan bo'lib, mavzular bayoni, multimedia materiallariga murojaat etish uchun QR(quick response)-kod hamda AR(augmented reality), har bir dars uchun taqdimot, videodarslar, amaliy topshiriqlar to'plami hamda o'quv metodik qo'llanmadan iborat bloklar majmuasidan tashkil topgan.

Darslikning 2-sahifasida joylashgan QR-kod yoki www://dr.rtm.uz manzili boyicha barcha elektron-resurslarga kirish, ularni yuklab olish hamda dars konspekti, test vazifalari, amaliy mashg'ulot vazifalarini chop etish imkoniyatlari mavjud.



Shuningdek, yangi darslik mazmunini to'ldiruvchi media tashkil etuvchilar, mobil ilova, videodarslar va eng foydali adabiyotlar yig'ilgan kutubxona ham mavjud. Quyidagi Link orqali 8-sinf «Informatika va axborot texnologiyalari» darsligi media tashkil etuvchilarini tomosha qilish, dars jarayonida ulardan foydalanish mumkin.

https://dr.rtm.uz/darslik/?til=uz&&sinf=8-sinf&&fan=informatika

Media resurslarning asosiy elementlari bilan tanishamiz.

Darslikning elektron varianti


1 Mazkur fayl ommabop *.pdf bichimida monitorda o'qish uchun flip-konversiya qilingan. Agar shu shaklda o'qish qiyinchilik tug'dirsa, u holda faylning aslini yuklab oling. Buning uchun Darslik menyusini tanlang. Chapdan pastdagi "O'qish" tugmachasini bosing. Faylning *.pdf varianti yuklanadi.



"Darslik" menyusiga joylashtirilgan *.pdf fayl.

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

2 Elektron faylni o'qish va oddiy kitob tarzida varaqlash mumkin.



UO'K 004(075.3)
KBK 32.810'zb-72
Ф 20

Fayziyeva M. R.
"Informatika va axborot texnologiyalari": umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik: M. R. Fayziyeva, D. M. Sayfurov. - Toshkent: "Tasvir", 2020. - 112 b.
Professor F. M. Zakirovaning umumiy tahriri ostida.

Taqrizchilar:

A. B. Radjiyev – Abdulla Avloniy nomidagi Xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti rektori;

S. Q. Tursunov – Nizomiy nomidagi TDPU "Informatika va uni o'qitish metodikasi kafedrasi" mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;

F. R. Tursunova – Toshkent shahar XTXQTMOHM "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi;

F. H. Boltayev – Respublika ta'lim markazi "Ilg'or pedagogik texnologiyalar va tajriba-tadqiqotlar" bo'limi boshlig'i.

SCAN ME

DIQQAT!
Darslikni to'ldiruvchi raqamli tashkil etuvchilarga o'tish uchun **QR Code** yoki **Web saytdan** foydalaning.

dr.rtm.uz

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-5799-5-8

© O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2020.
© «Nashriyot uyi TASVIR», 2020.
© MChJ «KolorPak», 2020.

MUNDARIJA

I BOB. SMM – IJTIMOIY MEDIA MARKETING
SMM (Social media marketing — ijtimoiy media marketing) haqida....5
SMM platformalar bilan tanishish. Facebook tarmog'i....9
SMM platformalar bilan tanishish. YouTube sayti....13
SMM platformalar bilan tanishish. Telegram tarmog'i....15
SMM platformalar bilan tanishish. Instagram tarmog'i....18

II BOB. SMM LOYIHALARI BILAN ISHLASH
SMMni Internet tarmog'ida harakatlantirish....23
Amaliy ish....25
SMM asosida tadqiqot loyihalarini boshqarish. YouTube saytida kanal ochish....26
SMM asosida tadqiqot loyihalarini boshqarish. Facebook tarmog'ida sahifa ochish....30
SMM asosida tadqiqot loyihalarini boshqarish. Telegram tarmog'ida kanal ochish....33

III BOB. CMS – KONTENT BOSHQARUV TIZIMLARI
CMS (content management systems — kontentning boshqaruv tizimlari) haqida....37
CMS platformalari bilan tanishish....40
Amaliy ish....44
CMSda maqsadga yo'naltirilgan Web-saytlarni yaratish....45
Amaliy ish....50
Web-sayt dizayni bilan ishlash....51
Amaliy ish....53
Web-sayt tarkibi bilan ishlash....54
Amaliy ish....57

IV BOB. LMS – TA'LIMNI BOSHQARUV TIZIMLARI
LMS (Learning management systems — ta'limni boshqaruv tizimlari) haqida....60
LMS platformalarining turlari va vazifalari....63
Amaliy ish....68
LMS asosida masofaviy ta'lim olish. Moodle platformasi....69
Amaliy ish....71
LMS asosida masofaviy ta'lim olish. Google Classroom platformasi....72
Amaliy ish....74


V BOB. MOOC – OMMAVIY OCHIQ ONLAYN KURSLAR
MOOC (massive open online courses — ommaviy ochiq onlayn kurslar) haqida....77
MOOC platformalarining turlari va vazifalari....81
Amaliy ish....87
MOOC asosida masofaviy ta'lim olish....88
Amaliy ish....91

VI BOB. WEB-FREELANCE – INTERNET ORQALI DAROMAD OLISH
Web-Freelance haqida tushuncha....94
Web-Freelance saytlari bilan tanishish....98
Amaliy ish....103
Glossariy....105
Foydalanilgan adabiyotlar....110


3 *.pdf variantni yuklab olish uchun boshqarish panelidan "•••" tugmachani bosamiz.



4 Download PDF file menyusini tanlaymiz.




5 Yuklangan faylni "pdf-reader" dasturlarida bemalol o'qish, chop etish mumkin.




www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

Taqdimot bilan ishlash

1. «Informatika va axborot texnologiyalari» fanining har bir darsi uchun taqdimotlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni yuklab olib, dars jarayonida foydalanish mumkin. Dars taqdimotlarini yuklab olish uchun taqdimot bo'limi tanlanadi.



2. Kerakli mavzu taqdimotini yuklab olish uchun shu mavzu ustida sichqoncha tugmachasi bosiladi va *.ppt variantdagi taqdimotdan dars o'tish jarayonida foydalanish mumkin.




Videolar bilan ishlash

1. «Informatika va axborot texnologiyalari» darslarini mustahkamlash uchun videodarslar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni yuklab olish uchun **VIDEO** bo'limiga o'tiladi.




www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

2 Kerakli videoni ko‘rib chiqish uchun **PLAY** tugmachasi bosiladi. Videoni yuklab olish uchun “⋮” uchta nuqta tugmachasi bosilib, **СКАЧАТЬ** ko‘rsatmasi tanlanadi.



Elektron resurslardan foydalanish

1 Darslik mazmunini to‘ldiruvchi elektron kutubxonadan foydalanish uchun E-resurs bo‘limi tanlanadi. Kutubxona o‘zbekcha, ruscha va inglizcha adabiyotlarni o‘z ichiga olgan.



2 Kutubxonadan elektron kitoblarni o‘qish yoki yuklab olish uchun kerakli kitob ustida sichqoncha tugmachasi bosiladi.




3 Ekranda tanlangan kitobning *.pdf varianti ochiladi. Kitobni oddiy kitob kabi varaqlab o‘qish yoki yuklab olish mumkin. Yuklab olish jarayoni darslikni yuklab olish jarayoni kabi amalga oshiriladi.

Mobil ilovadan foydalanish


1 «Informatika va axborot texnologiyalari» darslarini mustahkamlash uchun mobil ilova ishlab chiqilgan bo‘lib, yuklab olish uchun **softlar** bo‘limiga o‘tiladi.



2



3 Mobil qurilmaga yuklab olingan mobil ilova ishga tushiriladi. Darslik sahifasi ustida mobil qurilma biroz ushlab turiladi va ushbu mavzuga mos AR videoni ko‘rish imkoniyati paydo bo‘ladi.









PowerPoint shablonlaridan foydalanish

1 «Informatika va axborot texnologiyalari» darslarini loyihalash metodi asosida tashkil etishda o‘quvchilar tomonidan o‘z loyihalarini taqdimot qilish topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar o‘z loyihalari taqdimotlarini yaratishda PowerPoint shablonlaridan foydalanishlari mumkin. Buning uchun **PowerPoint shablonlari** bo‘limiga o‘tiladi.



Mazkur metodik qo‘llanma har bir dars uchun muhim quyidagi komponentlarga ega:

- -o‘quvchilar bilim, ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar;
- -yillik taqvim reja;
- -ta’lim berishning zamonaviy metod va texnologiyalari;
- -onlayn va aralash ta’lim shaklida dars berish texnologiyasi;
- -namunali dars ishlanmalari.

O‘qitiladigan modullar hamda hosil qilinadigan *ko‘nikmalar* davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari talablaridan kelib chiqqan holda keltirilgan bo‘lib, o‘qituvchi zimmasiga shu bilimlarga asosiy urg‘u berish, o‘quvchilarda zarur ko‘nikmalarni hosil qilish vazifasi yuklatilgan.

Elektron resurslar nomlari

Har bir darsda foydalanish tavsiya etiladigan taqdimot, video va tarqatma materiallarini dr.rtm.uz manzili orqali yuklab olish mumkin. Ulardan nafaqat o‘qituvchi, balki o‘quvchilar ham samarali foydalanishlari mumkin.

Qo‘shimcha resurslar

Har bir o‘qituvchi dars berish jarayonida o‘z ijodiy mahsuloti yoki boshqa manbalardan olgan ma’lumotlardan foydalanishi, shu bilan o‘quvchilar bilimini boyitishi tavsiya etiladi.

II. ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

II.1. Blended learning (aralash ta’lim) texnologiyalari

Blended learning (aralash ta’lim) shunday ta’lim konsepsiyasiki, unda o‘quv mashg‘ulotlari ham auditoriyada, ham onlayn ravishda tashkil etiladi. O‘quv mashg‘ulotining bu turida ta’lim oluvchilar auditoriyadan o‘qituvchi bilan yuzma-yuz ko‘rishib va auditoriyadan tashqarida onlayn ravishda masofaviy ta’lim tizimlari orqali mustaqil ravishda ta’lim olishi mumkin. O‘qitishning bunday tashkil etilishi materialni o‘qish vaqti, sur’ati (tezligi), yo‘li va joyini boshqarish imkoniyatini beradi. Shuningdek, aralash ta’lim an’anaviy metodika va dolzarb texnologiyalarni birlashtirish imkonini beradi.

Deklan Bern «blended learning» (aralash ta’lim) haqida shunday deydi: “Ta’limning bu turi boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan”. Bunday yondashuv axborotni taqdim etishda turli usullardan foydalanishni, ta’limni tashkil etishda va ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari, yakka tarzda va guruhlarda an’anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv o‘quvchini toliqtirmaydi va uning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Asosiy masala – tanlangan metodlarning o‘zaro mutanosibligini ta’minlash hamda kam harajat asosida yuqori samaradorlikka erishishdan iborat.

Bugungi kunda blended learning kunduzgi an’anaviy ta’lim va masofaviy ta’limning unsurlari kombinatsiyasi hisoblanib, bunda an’anaviy metodika va yangi texnologiyalarni uyg‘unlashtirishga imkon yaratiladi. Bu tizimda o‘qituvchi ta’lim markazida qoladi va internet imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi.

Blended learning (aralash ta’lim)da ta’limning kunduzgi shaklidagi an’anaviy, ya’ni sinf xonasidagi ta’lim (Fake-to-Fake learning), masofaviy ta’lim (Distance learning) hamda internet orqali ta’lim (Online learning)ning turli texnologiyalaridan foydalanish mumkin.

Xorij amaliyotida mavjud aralash ta’limning 6 ta modeli

1. «Face to Face Driver» modeli

O‘quv dasturining ahamiyatli qismi bevosita o‘qituvchi yordamida o‘rganiladi. Asosiy dasturga qo‘shimcha sifatida elektron ta’lim ishlatiladi, jumladan, elektron resurslar bilan ishlash mashg‘ulot davomida kompyuterlarda tashkil etiladi.

2. «Rotation», «Flipped learning» modeli

O‘quv vaqti individual elektron ta’lim va o‘qituvchi bilan birgalikda sinfda tashkil etilgan ta’limga taqsimlanadi. Bunda nazariy materiallar individual tarzda masofadan turib o‘qiladi va o‘zlashtirilgan material auditoriyada o‘qituvchi hamkorligida o‘zaro muzokaralar asosida mustahkamlanadi.

3. «Flex» modeli

O‘quv dasturining katta qismi elektron ta’lim orqali o‘zlashtiriladi. O‘qituvchi har bir ta’lim oluvchini masofadan kuzatib boradi. Mavzu tarkibidagi murakkab tushunchalar bo‘yicha maslahatlarni kichik guruhlarda, individual shaklda tashkil etadi.

4. «Online Lab» modeli

O‘quv dasturi elektron ta’lim talablariga mos ravishda kompyuter texnikasi bilan ta’minlangan auditoriyalarda qoidaga asosan tashkil etiladi. Onlayn ta’lim o‘qituvchi kuzatuvi asosida olib boriladi.

5. «Selfbrender» modeli

Model Amerikaning oliy ta’lim muassasalari uchun an’anaviy hisoblanadi. O‘quvchilar mustaqil tarzda asosiy ta’limga qo‘shimcha ravishda kurslarni tanlaydi.

6. «Online Driver» modeli

O‘quv dasturining asosiy qismi axborot ta’lim muhitidagi elektron resurslar yordamida o‘zlashtiriladi.

II.2. Vebinar (webinar) texnologiyasi

Masofaviy ta’limning yana bir ko‘rinishi «webinar» texnologiyasi bo‘lib, bu atama 1998-yilda muomalaga kirib kelgan.

Vebinar yoki veb-asosli seminar bu – Internet orqali videokonferensaloqa dasturlari orqali taqdim etiladigan taqdimot, ma’ruza yoki seminar. Vebinarning asosiy xususiyati shundaki, u interfaoldir. Veb-taqdimot ishtirokchilari real vaqt rejimida ma’lumotlarni yetkazish, olish va muhokama qilish imkoniyatiga ega.

Vebinar texnologiya o‘qitishni veb-texnologiya asosida interfaol holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiya nafaqat tinglovchilarga axborotni yetkazadi, balki ular bilan muloqotga kirishish (og‘zaki, yozma) imkonini ham yaratadi, ya’ni unda seminar ko‘rinishida fikr almashish, o‘z fikrini bayon etish mumkin.

Vebinar texnologiyasida dars, seminar yoki konferensiya Internet orqali bir vaqtda tinglovchilar bilan audio, video ko‘rinishlarda jonli olib borilib, ushbu dars keyingi foydalanishlar uchun yozib olinishi mumkin.

Eng mashhur vebinar dasturlari orasida Zoom, Microsoft va Skypelar bugungi kunda keng tarqalgan. Ushbu vebinar dasturidan foydalangan holda, ma’ruzachilar suhbat paytida video, hujjat va ilovalarni vebinar qatnashchilari bilan bo‘lishishlari mumkin. Bugungi kunda ko‘p vebinar xizmatlari jonli translyatsiya variantlarini yoki vebinarni yozib olish va YouTubeda nashr etish imkoniyatini taklif etadi.

Vebinar (onlayn trening) bu – Internet orqali ta’lim faoliyati (kurslar, treninglar, mahorat darslari). Jahon amaliyotining ko‘rsatishicha, bunday o‘qitish juda sodda va qulaydir.

Vebinar tashkil etishning vositalari:

- Internetga ulangan kompyuter yoki telefon;
- voqealar haqida xabardor bo‘lish uchun minigarnitura yoki karnaylar.

Vebinarni tashkil etish:

- 1. Guruhdagi vebinarning rejalashtirilgan vaqtiga yaqin maxsus xizmatga (web-sayt, telegram messenjer)ga havola yuboriladi.
- 2. So'ngra barcha o'quvchilar taqdimotga hamda o'qituvchi bilan video joylashtirilgan saytga havola orqali o'tadi.
- 3. Aloqa tekshiruvi o'tkaziladi (agar o'quvchilardan biri bog'lanmagan bo'lsa, bu haqda ularga telegram guruhi yoki veb-suhbatda xabar beriladi).
- 4. Barcha kerakli qadamlar bajarilgandan so'ng, o'qituvchi mavzuni tushuntirishga kirishadi.

O'quvchilar:

- vebinar suhbatida savollar berishi mumkin (web-saytda o'ngda);
- o'qituvchini ham, taqdimotni ham kuzatishlari mumkin.

Vebinar tugaganidan so'ng vebinarga kirolmaganlar yoki qayta ko'rib chiqishni xohlovchilarga uni qayta ko'rib chiqish uchun vebinar yozib olingan video taqdim etiladi.

Vebinarning asosiy afzalliklari:

- istalgan joyda mavjudligi. Siz veb-seminarda dunyoning istalgan joyidan qatnashishingiz mumkin;
- tejamkorlik. Vebinarning narxi jonli mashg'ulotlarga nisbatan ancha past;
- bepul qayta ko'rish. Tugallangan materialni qayta-qayta ko'rish mumkin.


Zoom.us
zoom.us

ZOOM (zoom.us) – videokonferensiya va vebinarlarni o'tkazish platformasi. Bepul versiyasida 40 daqiqagacha 100 ta ishtirokchi bilan muloqot qilish imkoniyati mavjud. Vebinarni smartfon yoki kompyuter orqali tashkil etish, dars yoki vebinar ishtirokchisi ovoz yoki video rejimda ishtirok etishi mumkin. Istalgan ishtirokchi o'z ekrani orqali materialni namoyish etish imkoniga ega.


Facebook Live
facebook.com

Videodarslarni to'g'ridan-to'g'ri Facebookda tashkil eting. Mazkur dasturda jonli efirda onlayn darslarni o'tkazishingiz mumkin. Dasturda sinf uchun yopiq, qiziquvchilar bo'lsa, ochiq guruh yarating.

II.3. Ta’limni boshqaruv tizimlari



Google Classroom (https://classroom.google.com/) ta’lim uchun mo‘ljallangan platforma bo‘lib, kurs/sinfni yaratish va ularga o‘quvchi qo‘shish, kerakli o‘quv materiallarini kiritish va o‘quvchilarga taqdim etish, o‘quvchilarga topshiriq berish, ular ishlarini baholash va faoliyatini kuzatib borish, o‘quvchilar bilan muloqot qilish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi. Google Classroomda Googleda akkauntga ega xohlagan foydalanuvchi kurs yaratishi mumkin.



Moodle (Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment) (http:// moodle.org/) masofaviy ta’lim olish muhiti hisoblanib, sifatli masofaviy kurslarni yaratish uchun mo‘ljallangan. Bu dasturiy mahsulot dunyoning 100 dan ziyod mamlakatlarida ishlatiladi. Bepul tarqatiladigan bu dasturiy majmua o‘zining funksional imkoniyatlari, o‘rganishdagi soddaligi va ishlatishdagi qulayligi bilan foydalanuvchilarning ko‘plab talablarini qanoatlantira oladi. Moodle masofaviy ta’limda o‘qitish jarayonini to‘la qo‘llab-quvvatlash uchun keng doirada, jumladan, o‘quv materiallarini turli usullarda berish, bilimlarni tekshirish va o‘zlashtirish nazoratini amalga oshirish kabi imkoniyatlarni beradi.

Ushbu platformalar orqali o‘quv jarayonini modellashtirish qulay – ularda o‘quv materiallarini joylashtirsh, fikr-munozaralar olib borish, yig‘ish va ularni qayta ishlash imkoniyatlari mavjud.

GOOGLE CLASSROOMDA O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH

Hozirgi vaqtda o'quv jarayonini zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanmasdan tashkil etish mumkin emas. O'qitish va tarbiyalashning eng dolzarb vazifasi o‘quvchilar bilimi va ko‘nikmasini rivojlantirish hisoblanadi. Bu esa XXI asr avlodida quyidagi ko'nikma va fazilatlarni shakllantirish orqali namoyon bo'ladi: shaxsiy javobgarlik, boshqa nuqtayi nazarlarga nisbatan bag'rikenglik, muloqot qobiliyatlari, o'zini rivojlantirish qobiliyati, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ma’lumot topish, tahlil qilish, boshqarish, ma'lumotlarni birlashtirish, baholash va turli shakllarda va turli metodlar bilan yaratish, jamoada ishlash qobiliyati, muammolarni qo'yish va yechish qobiliyati.

Ushbu muammoni hal qilish uchun AKTni boshqa zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda o'quv jarayonida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Google texnologiyasining mohiyati o'quvchilarni nafaqat o'quv tarkibini iste'molchilari sifatida, balki uning faol yaratuvchilari sifatida ham o'quv jarayoniga jalb qilish imkoniyatidan iborat bo'lib, u ta’lim oluvchining pedagogik jarayonning markazida bo'lishiga yordam beradi.

Google Internetga ulangan har qanday brauzer oynasidan kirish mumkin bo'lgan ko'plab dasturlar va xizmatlarni taklif etadi. Ta'lim sohasida eng ko'p ishlatiladigan Google xizmatlari: Google Calendar — onlayn taqvim, Google Docs — onlayn ofis, Gmail — bepul elektron pochta, Google Maps - xaritalar to'plami, Google Sites - wiki texnologiyasidan foydalangan holda bepul xosting, Google Translate — tarjimon, YouTube — videoxosting. Ushbu Google ilovalario‘quvchi va o'qituvchilarga samarali muloqot qilish va hamkorlik qilish uchun kerakli vositalarni taqdim etadi. Google Services for Education ishlab chiquvchilarining fikriga ko'ra, mazkur dastur va xizmatlar "o'qituvchilar va ta’lim oluvchilar muloqot qilishi, o'qitish va samarali o'rganishi uchun imkoniyatlar beradigan bepul va reklamasiz vositalarni o'z ichiga oladi.

Google xizmatlaridan ta'lim sohasida foydalanishning asosiy afzalliklari:

- Hardware apparat uchun minimal talablar (zarur shart — Internetga kirish imkoniyati);
- Google texnologiyalari maxsus dasturiy ta'minotni sotib olish va saqlash xarajatlarini talab qilmaydi (dasturlarga veb-brauzer oynasi orqali kirish mumkin);
- Google ta’lim oluvchilar va ta'lim muassasalari foydalanadigan barcha operatsion tizimlar va mijoz dasturlarini qo'llab-quvvatlaydi;
- Barcha Google vositalari bepul.

Bepul Google Class vositasi o'qituvchilar va ta’lim oluvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalar vositasidir. Google Class orqali o'qituvchilar kurslar tashkil qilish, o'quvchilarga topshiriq va sharhlarni yuborishi va qimmatli fikr-mulohazalarini olishi mumkin.

Google Classroom — LMS sifatida ishlatiladigan dasturlardan biridir. Google Classroomni joylashtirish va sozlash juda oson. Barcha ma'lumotlar Google serverlarida saqlanadi, xususan, o‘quvchilar YouTubeda videodarsliklar, Google Driveda elektron darsliklar, Google Docsda yozma ishlarni bajaradi.

Kurslar yaratilib, kirish parollari ta’lim oluvchilarga tarqatilganidan so'ng, onlayn o‘qish boshlanadi. Kursga e'lon, topshiriqlarni qo'shish, savol berish mumkin (bu holda savolni butun guruh muhokama qilishi, bir-birlarining javoblariga izoh berishi mumkin).


Google Classroom foydalanuvchiga o‘quv jarayonini deyarli qog'ozsiz tashkil etish, o‘quvchilar hamkorligini takomillashtirish va o'quvchilariga tabaqalashtirilgan ta'lim berish, vaqt va qog'ozni tejash, teskari sinf (flipped learning) modelini boshqarish imkoniyatini beradi. Google Classroomda o‘quv jarayonini o'qituvchilar yoki o'quvchilarsiz tashkil etilganda, o‘quv materiallari va o‘tilgan darslarni qayta ko‘rish imkoniyati mavjud.

Googleda akkaunt yaratish

1) Googleda akkaunt yaratish — Google Classroomda ishni tashkil qilish uchun Google akkaunt bo'lishi kerak.

Googleda akkaunt yaratish uchun:


- gmail.com brauzer manzillar satriga kiritiladi;
- **Создать аккаунт** tugmachasi tanlanadi;
- akkaunt yaratish oynasida ma'lumot, login, parol kiritiladi va **Далее** tugmachasi bosiladi;
- keyingi oynada mobil telefon raqami, zaxira elektron pochta manzili, tug'ilgan kun kiritiladi va **Далее** tugmachasi bosiladi;
- mobil telefondan tasdiqlash kodi kiritiladi;
- Google maxfiylik siyosatiga rozilik bildirish uchun — **Принимаю** tanlanadi;
- Google akkaunt yaratiladi.




2) Google Classroom manzili (classroom.google.com)ni brauzer manzil qatoriga kiritiladi yoki Classroom sahifasiga o‘tiladi.


Google Classroomda kurs yaratish:

- yangi kurs yaratish uchun “+” tugmachasi bosiladi va menyudan Create Class tanlanadi.
- tizimni ta’lim muassasasida ishlatmaslik talabiga rozilik belgisi qo‘yiladi.
- **Create Class** oynasida kurs nomi va boshqa ma’lumotlar kiritiladi va **Create** tugmachasi bosiladi.












Yaratilgan kurs oynasiga kiriladi.



Foydalanuvchilar (People)ni kursga a'zo qilish uchun. Students bo'limidan "+" orqali kurs o'quvchilari qo'shiladi. Invite link oynasida ta'lim oluvchilarning gmail pochtasi kiritiladi va invite tugmachasi bosiladi.






Shu tariqa o'quvchilar guruhi kursga a'zo qilinadi. O'quvchilar esa pochta orqali kelgan taklifnomalarni qabul qilishlari kerak bo'ladi.

GOOGLE CLASSROOMDA TOPSHIRIQLARNI JOYLASHTIRISH


Google Class o'qitish jarayoni samaradorligini yanada oshiradi, xususan, topshiriqlarni qulay tarzda nashr etish va baholash, jarayonning barcha ishtirokchilari hamkorligi va samarali o'zaro aloqalarini tashkil etish imkonini beradi. Kurslar yaratish, topshiriqlarni tarqatish va o'quvchilar ishiga sharh berish — bularning barchasi bitta xizmatda amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, Class Docs va Drive kabi boshqa Google vositalari bilan birlashtirilgan.


Vazifalarni kompyuterdan, Google Drive bulutli diskidan Internet-resursga havola sifatida qo'shish mumkin.

Topshiriq qo'shish uchun kurs oynasida Classwork yorlig'i tanlanadi. "+ Create" tugmachasi bosiladi. Ko'rsatilgan menyuda Assignment tanlanadi.



Assignment oynasida Title qismiga vazifa nomi kiritiladi. Instructions qismiga vazifani bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar yoziladi.





Vazifani biriktiradigan joy tanlanadi:

1) vazifani kompyuterdan biriktirish belgisi;

2) vazifani Google Drive — bulutli diskdan biriktirish belgisi;

3) videoklipni YouTubedan biriktirish belgisi;

4) Internetdagi manbaga havola qo'shadi, bu yerga Internetdagi resurs manzili kiritiladi.


Tugallangan topshiriq uchun ball (Points), topshiriqni bajarish muddati (Due) va "Vazifani yaratish" tugmachasi ko'rsatiladi. Shuningdek, "All students" yorlig'ida alohida o‘quvchilar uchun topshiriqlar berish mumkin, buning uchun aniq o‘quvchi ko‘rsatiladi.

Topshiriq kurs tasmasi (Stream)da paydo bo'ladi. Avtomatik ravishda barcha o‘quvchilarga yuboriladi.


Xuddi shu tarzda savol, material, testlarni yaratish mumkin.


GOOGLE CLASSROOMDA ISHLARNI TEKSHIRISH

O'qituvchi Google Classroomda topshiriqlarni tekshirishi mumkin. Buning uchun Classwork bo'limi tanlanadi.



Tekshirmoqchi bo'lgan topshiriq bosiladi va ochilgan topshiriqda View assignment — Topshiriqni ko'rish bosiladi.






Ta'lim oluvchilar ishlari joylashgan oyna ochiladi. Birorta o'quvchi tomonidan biriktirilgan topshiriq javobi ochiladi. Bajarilgan topshiriq natijasi alohida oynada ochiladi. Bajarilgan topshiriqqa ball qo'yib, topshiriqlar oynasiga qaytiladi.

II.4. Google formsda test va anketa so'rovnomalari yaratish texnologiyalari

1. Testlar va anketa savollari uchun shakllar yaratish

Google forms yaratish uchun https://docs.google.com/forms/u/0/. havolasi yordamida o'tiladi. Google formsda ishlash uchun, eng avvalo, akkauntga ega bo'lish talab etiladi. Unga kirgandan keyin ekran yuqori chap tomonidagi "+" tugmachasi ustiga bosiladi. Shunda ekranda yangi shakl ochiladi. Bu shaklga nom berish va istalgan vaqtda nomini o'zgartirish mumkin.




2. Material qo‘shish

Shakllarga har qanday savolni qo‘shish mumkin. O‘ng tomonda bir necha tugmacha joylashgan bo‘lib, ular quyidagi amallarni bajaradi:

- savol qo‘shish;
- import
- nom qo‘shish (bu nom sarlavha sifatida turadi);
- rasmni qo‘shish;
- videoni qo‘shish;
- bo‘lim qo‘shish.

Bunda shaklni ko‘rish uchun har bir yangi bo‘lim yangi sahifada ochiladi. Bu nazorat ishlarida juda qo‘l keladi. Har bir vazifa yangi sahifada bo‘ladi va bitta sahifani pastga qarab uzoq varaqlashga hojat qolmaydi.

3. Google shaklda javobli testlar qanday yaratiladi?




Shakl sozlamalariga kirish uchun yuqori o‘ng burchakda kichik sozlovlar tugmachasi bosiladi. Ochilgan oynada o‘ng tomondagi testlar bo‘limiga o‘tiladi va u yerdan test rejimi yoqiladi. Ya’ni test yozuvi yonida turgan siljuvchi tugmachani o‘ng tomonga surib, rejim faollashtiriladi. Qolgan sozlamalar ushbu rasmda ko‘rsatilgani kabi kerakli tartibda sozlanadi. Sozlamalar bunday o‘rnatilgan holatda o‘quvchilar to‘g‘ri javoblarni ko‘rishmaydi va shu boisdan uni do‘stlari bilan bo‘lisha olmaydi.


Agar “Later, after each submission – qo‘lda tekshirilgandan keyin bahoni ko‘rish” varianti tanlansa, u holda Google forms avtomatik ravishda shu Google formsni to‘ldirayotgan barchaning elektron manzillari to‘plamini qo‘shadi. Buni bekor qilish uchun dastlab “General” bo‘limiga o‘tiladi va u yerdan “Collect email addresses – manzillarni yig‘ish” bandi yonidagi tasdiq belgisi olib tashlanadi. Shuningdek, nazorat ishlari va imtihonlarda “Limit to 1 response – shaklni faqatgina bir marta yuborish” yozuvi yonidagi katakchaga tasdiq belgisini qo‘yish va aksincha, “Edit after submit – javoblarni o‘zgartish” hamda “See summary charts and text responses – boshqa javoblarni ko‘rish” bandlaridan ham tasdiq belgisini olib tashlash kerak.

4. Savollar va javoblar shakllari

Shaklda test yaratilgandan keyin unga istalgancha savol va javoblarni qo‘shish mumkin. Unda sinov va nazorat ishlarida foydalanish mumkin bo‘lgan savollarning juda ko‘plab shakllari mavjud. Savolni yaratgandan keyin, javob shaklini o‘ng tomondagi Multiple choice (ochiluvchi ro‘yxatdan) tanlash mumkin.



To‘g‘ri javob variantlarini turli miqdorda qo‘shish mumkin. Buning uchun “Answer key” tugmachasiga bosish va u yerdan to‘g‘ri javobni tanlash kerak. Shuningdek, berilgan variantlarga qarab yagona javobni va bir nechta to‘g‘ri javobni tanlash, o‘quvchi to‘g‘ri javob berganda, necha ball (points) olishini belgilab qo‘yish mumkin. Agar lozim bo‘lsa, muayyan javob nima uchun to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligiga izoh (Add answer feedback) ham qo‘shish mumkin.



Javob variantlari:

Multiple choice — yagona to‘g‘ri javob;


Checkboxes — bir nechta to‘g‘ri javob;

Dropdown — bundan javob variantlari juda ko‘p bo‘lganda foydalanish;

File upload — qo‘lda yozish lozim bo‘lgan javoblarni rasmga olib yuklash;

Linear scale — sinov testlaridan boshqa testlar uchun;

Multiple choice grid — ustun va satrlar yaratish va ularning kesishmasida javob variantini tanlash.



Har bir savolni majburiy yoki majburiy emas, deb belgilash mumkin. Agar “Required”, ya’ni majburiy savol bandi yonidagi siljuvchi tugmachani o‘ng tarafga surib faollashtirilsa, Google javob kiritish maydoniga biror narsa kiritilmaguncha shaklni yuborishga ruxsat bermaydi.

Istalgancha miqdorda savollar kiritish va to‘g‘ri javob uchun ballarni belgilash mumkin. Shuningdek, to‘g‘ri javobi kiritilmagan topshiriqlarni ham qo‘shish mumkin. Bunda o‘quvchilar javobni kiritish maydoniga to‘g‘ri javobni yozishadi. O‘qituvchi javoblarni qo‘lda tekshiradi va har bir topshiriq uchun ball qo‘yadi.


5. Shakllarni ko‘rish va o‘quvchilarga yuborish

Joriy vaqtda test qanday shaklda ekanligini, bu shakl test topshiruvchilarga qanday shaklda namoyon bo‘lishini ko‘rib chiqish uchun yuqori o‘ng burchakdagi ko‘z shaklidagi tugmachaga bosish kerak. Shaklni o‘quvchilarga yuborish uchun “**Send**” tugmachasi hamda havola bo‘limi tanlanadi. Shunda havolani ko‘chirib olish va test topshiruvchilarga yuborish mumkin. Ular havolani ochishlari bilan test ochiladi va ular shaklni to‘ldirishga kirishishlari mumkin bo‘ladi.




6. Javoblarni ko‘rish va ball qo‘yish


Javoblarni ko‘rish uchun shakl nomi ustidagi **Responses** bo‘limiga kiriladi. U yerda umumiy statistikani ko‘rish mumkin. Lekin har bir ishtirokchiga ball qo‘yish uchun “**individual**”, ya’ni yakka foydalanuvchi bo‘limiga kirish kerak.



7. Umumiy javoblar jadvali

Barcha javoblarni jadvalda ko‘rish mumkin. Buning uchun Responses bo‘limidagi “Create spreadsheet” jadval yaratish bandini bosish kerak (excelning yashil belgisi), shunda yangi jadval yaratiladi.





Bunda Google o‘zi natijalar aks etgan jadvalni yaratib beradi. Mana bu yerga o‘qituvchi tekshirilgan ishlar va qo‘yilgan ballar jadvalini joylashtiradi. Unda har bir o‘quvchining barcha javoblari va umumiy balli ko‘rsatilgan. Unda faqat yakuniy ballnigina ko‘rish yoki jadvaldan topshiriqlarni yaxshilab o‘rganish uchun foydalanish ham mumkin. Chunki jadvallarda topshiriqlarni turli ranglar bilan belgilash, izoh yozish kabi vazifalarni bajarish mumkin.

III. MUAMMOGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

Muammoga yo‘naltirilgan ta’lim bu — o‘quvchilarda, bir tomondan, sohalararo bilim va ko‘nikmalarni rivojlantiradigan, ikkinchi tomondan, tanqidiy tafakkur va muammolarni yechishni o‘rgatadigan o‘qitish jarayonini tashkil etuvchi tizim. Ta’limning bu metodi Kanadaning Ontario shahridagi MakMaster universitetining tibbiyot fakultetida ishlab chiqilgan. Bu hamkorlikdagi ta’limning tizimlashtirilgan shakli bo‘lib, o‘quvchilarni real hayotning muammolarini tanqidiy va chuqur o‘rganishga jalb etish yo‘li bilan individual va jamoaviy bilim darajasini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilar ta’lim maqsadini o‘zlari belgilaydi, axborot izlash usuli va so‘rovlarini shakllantiradi va olingan natijalarni tahlil qiladi.

Muammoga yo‘naltirilgan ta’limdan foydalanishga misol sifatida ma’lum auditoriya uchun ishlab chiqilgan samarali ijtimoiy reklama kompaniyasini keltirish mumkin.

III.1. “Aqliy hujum” metodi

Bu metod birorta muammo bo‘yicha o‘quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metod hisoblanadi. Metodning yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga o‘quvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. O‘quvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa bayon etadi. Yozma shaklida esa berilgan savolga o‘quvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadi. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjud. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda, o‘quvchini erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda o‘quvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan, o‘quvchilarda muloqot qilish, munozara olib borish madaniyati shakllanadi. O‘quvchilarda o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlarning baholanmasligi o‘quvchilarda turli g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi. Metod o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodini olib borish bosqichlari
1. O‘quvchilarga savol tashlanadi va ulardan shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlari so‘raladi.
2. O‘quvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi.
3. O‘quvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafon, videotasma, rangli qog‘ozlar yoki doskada) to‘planadi.
4. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

III.2. “Munozarali darslar” metodi

Munozarali darslar ham muammoli ta’lim texnologiyalariga asoslanadi. Munozarali darslar mazmuni va mohiyatiga ko‘ra:

1. ilmiy munozara darslari;
2. erkin fikrlash darslariga ajratiladi.

Ilmiy munozara darslari dasturdagi muayyan bir mavzuni o‘rganishga bag‘ishlanadi. Mazkur dars oldida quyidagi vazifalar turadi:

1. o‘quvchilarning bilish qobiliyatini faollashtirish orqali tahsil olish va fanga qiziqishlarini orttirish, bilimlarini kengaytirish;
2. o‘quvchilarning avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini odatiy, tanish va kutilmagan yangi vaziyatlarda qo‘llanishi orqali yangi bilimlarni egallashlariga erishish;
3. o‘quvchilarning bilimidagi mavhum tushunchalarni aniqlash va ularga barham berish, bilim olishga bo‘lgan intilishlarini rivojlantirish;
4. o‘quvchilarda nutq madaniyatini o‘stirish, o‘z fikrlarini lo‘nda va mantiqan to‘g‘ri bayon etish, ularda isbotlay olish ko‘nikmalarini hosil qilish.

“Munozarali darslar” metodini olib borish bosqichlari
1. O‘qituvchining kirish so‘zi. Bunda o‘qituvchi dars mavzusi, maqsadi va vazifalari, ilmiy munozara o‘tkaziladigan muammolarning umumiy obzori, darsda o‘quvchilar guruhi bajaradigan topshiriqlar bilan tanishtiradi.
2. O‘quvchilar faoliyatini munozarali va muammoli vazifalarni bajarish va hal etishga yo‘llash.
3. O‘quvchilar guruhi o‘rtasida o‘quv bahsi va munozarani tashkil etish.
4. O‘quv bahsi va munozara yakuni. O‘qituvchi dars davomida bahs va munozara keltirib chiqargan muammolar yechimidagi asosiy g‘oya va tushunchalarni ta’kidlab, xulosalar chiqaradi.

5. O‘quvchilarni baholash. O‘quv bahsi va munozaralarda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va belgilangan mezonlarga muvofiq baholanadi.

6. Uyga vazifa berish.

7. Darsni yakunlash.

IV. HAMKORLIKDAGI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

Hamkorlikdagi ta’lim berish shunday yondashuvki, bunda o‘quvchilar yagona maqsadga erishish yo‘lida hamkorlikda ish olib borishadi. Hamkorlikdagi ta’lim oddiy juftlikda ishlashdan murakkab variantlargacha o‘zgarishi mumkin. Masalan, loyihani ishlab chiqish, o‘quv materialini bo‘laklarga bo‘lib, o‘quvchilar o‘rtasida tarqatishda o‘qitishning «arra» metodidan foydalanish, savol qo‘yish va munozara davomida birgalikda javob izlashga asoslangan o‘qitishdan bir-birini o‘qitishgacha, bunda o‘quvchilarning har biri ma’lum vaqtga o‘qituvchi vazifasini bajarishi ham mumkin. Ushbu ta’lim shakllarining hammasi konseptual ong va tafakkurni, shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘zi va maktabga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish kabi maqsadlarga qaratilgan. Bundan tashqari, o‘quvchilarning bilim olish qobiliyati va tayanch bilimlarining ko‘rsatkichlari jiddiy farq qilsa, ular sinfda o‘quv jarayonini boshqarish imkoniyatini beradi.

Ba’zan kichik guruhlarda ishlash deb nomlangan hamkorlikda ta’limda o‘quvchilar kichik guruhlarda berilgan topshiriqni birgalikda bajaradi. Topshiriq sifatida ko‘p bosqichli matematik masalani yechish kabi oddiy yoki yangi turdagi infratuzilma loyihasini ishlab chiqish kabi murakkab vazifa berilishi mumkin.

Aksariyat odamlar onlayn va masofaviy o‘qitishning kamchiliklaridan biri – o‘quvchilar o‘zaro ishlash va hamkorlik qilish uchun kamroq imkoniyatlarga ega bo‘ladi, deb o‘ylaydi. Bugungi kunda zamonaviy dasturiy ta’minotlar o‘quvchilar o‘rtasida samarali aloqa o‘rnatish imkonini beradi. Aslida, ijtimoiy tarmoqlar o‘rgatuvchi dasturiy ta’minotlarning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Sharhlash va munozara forumlari kabi asosiy xususiyatlar o‘quvchilarga asinxron ravishda o‘zaro aloqada bo‘lish imkonini beradi. Individual va guruh suhbatlari real vaqt rejimida aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi. Fayllarni birgalikda yozish, foydalanuvchi guruhlari, anketa va so‘rovlar ham o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarini kuchaytiradi.

Agar o‘rgatuvchi tizimlarda bunday imkoniyatlar mavjud bo‘lmasa, u holda ko‘pchilik bajaradigan xizmatlar bilan (masalan, hammualliflik uchun Google Drive va guruh chati uchun Slack) integratsiya qilish mumkin.

Shuningdek, o‘quvchilar blog va vikilar yordamida o‘zlarining shaxsiy tarkiblarini yaratishlari mumkin. Ushbu vositalar o‘quvchilarni faollashtiradi va o‘quv dasturidan tashqarida o‘rganishni rag‘batlantiradi. Foydalanuvchilar o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashishlari, boshqalarning sharh va bilimlarini bo‘lishishlari mumkin.

IV.1. “Kichik guruhlarda ishlash”

O‘quvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda, o‘quvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtayi nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda, o‘qituvchi boshqa interfaol metodlarga nisbatan ko‘proq vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida barcha o‘quvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholaydi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.

	“Kichik guruhlarda ishlash” metodini olib borish bosqichlari
1.	Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2.	Kichik guruhlar belgilanadi. O‘quvchilar guruhlarga 3–6 nafardan bo‘linishlari mumkin.
3.	Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadi.
4.	O‘qituvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5.	Kichik guruhlar taqdimot qiladi.
6.	Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7	Kichik guruhlar baholanadi.

V. LOYIHAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

1911-yilda AQSH ta’lim tizimida “loyiha” tushunchasi ta’limiy kategoriya deya e’tirof etilgan bo‘lsa, loyiha metodi didaktik metod sifatida XIX asr boshlarida shakllangan.

Loyiha (lot. “projectus” – “ilgari surilgan”) – aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli.

Loyiha ta’limi – ta’limiy xarakterdagi aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ta’lim.

Loyihalash texnologiyasi mustaqil kognitiv va amaliy faoliyatni tashkil etish, dunyoqarashini kengaytirish, natijalarga erishish faoliyatini mohirona loyihalash ishlarini bajarish qobiliyati va kognitiv qiziqishni shakllantirish, o‘z fikrini bayon etish va himoya qilish qobiliyati, mustaqil ta’lim olish hamda ilmiy izlanish va tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirilgan ijodiy potensialni rivojlantirish imkonini beradi.

O‘quvchilar muammolarni muvaffaqiyatli hal etishlari uchun o‘qituvchi ularga tegishli ko‘rsatmalar berishi, foydalaniladigan manbalarni tavsiya etishi, o‘qitishdan ko‘zlangan natijaga erishish yo‘llarini ko‘rsatishi lozim.

Loyihalash texnologiyasining asosiy g‘oyasi amaliy yoki nazariy ahamiyatga molik bo‘lgan muammoni hal etishni loyihalash, uning aniq yechimi, agar amaliy muammo bo‘lsa, amaliyotga qo‘llash masalasi bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. O‘quvchilar ushbu natijaga erishish uchun mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini egallagan bo‘lishlari, muammoni anglash va uni hal etish yo‘llarini izlashlari, bu borada avval o‘zlashtirgan bilimlaridan foydalanishlari, fanning turli sohalarida izlanishlar olib borishlari, olinajak natijalarni bashorat qilish, turli yechimdagi variantlarni ishlab chiqishlari, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tasavvur qilishlari zarur.

Ma’lum bir muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali o‘quvchilarning qiziqishlarini orttirish, loyihalash faoliyatini shakllantirish, ularning tegishli bilimlarni egallashlari, fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish loyihalash texnologiyasining asosiy mohiyati sanaladi.

Loyihalash texnologiyasida foydalanish o‘quvchilarga individual va differensial yondashish imkonini beradi.

V.1. “Loyiha” metodi

O‘quvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda o‘quvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish, xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadi. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhda bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, o‘quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

O‘qituvchi “Loyiha” metodini qo‘llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni o‘quvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta’minlashi lozim.

“Loyiha” metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- yakka tartibdagi ish;
- kichik guruhiy ish;
- jamoa ishi.

	“Loyiha” metodini olib borish bosqichlari
1.	O‘qituvchi loyiha ishi bo‘yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. O‘quvchilar mustaqil ravishda darslik, sxema, tarqatma va qo‘shimcha materiallar asosida topshiriqqa oid ma’lumotlarni yig‘adi.
2.	O‘quvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadi. Ish rejasida o‘quvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.
3.	Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladi. O‘quvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo‘yicha qaror qabul qiladi. O‘quvchilar o‘qituvchi bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo‘yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.
4.	O‘quvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradi. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.
5.	O‘quvchilar ish natijalarini o‘zlari tekshiradi. Bundan tashqari, kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladi. Tekshiruv natijalari “Baholash varaqasi”da qayd etiladi.
6.	O‘qituvchi va o‘quvchilar ish jarayonini, natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. Amaliy mashg‘ulotlarda erishilgan ko‘rsatkichlarni me’yoriy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslashadi. Agar me’yoriy ko‘rsatkichlarga erisha olishmagan bo‘lsa, u holda buning sabablari aniqlanadi.

VI. FAOL VA INTERFAOL TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

VI.1.“Konferensiya” metodi

Didaktik o‘yinli darslar orasida konferensiya darslari ham muhim o‘rin tutadi. Konferensiya darslari o‘quvchilarda yashirin iqtidorlarini yuzaga chiqarish: mustaqil ravishda ma’ruza tayyorlash va jamoani o‘ziga qarata bilish, o‘z bilimini namoyon eta bilish kabi xislatlarni tarbiyalaydi. Shuningdek, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini orttirish, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi konferensiya darsini o‘tishdan avval dars mavzusi, maqsad va vazifalarini belgilab, shu mavzuga oid qo‘shimcha ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarni ko‘zdan kechiradi. Mazkur darsni o‘tishdan 10 kun oldin dars mavzusi e’lon qilinib, unga tayyorgarlik ko‘rish uchun adabiyotlar tavsiya etiladi. E’lon qilingan didaktik o‘yinli darsda «Kompaniya boshliqlari» rolini tanlash, mavzuni har tomonlama yoritish, ma’ruza tayyorlash o‘quvchilarning ixtiyorida bo‘ladi. Darsga tayyorgarlik davrida o‘qituvchi tomonidan ijobiy rag‘batlantirish va muloqot madaniyati, o‘quvchilarning darsga qizg‘in ishtiroki muhim omil sanaladi.

“Konferensiya” metodini olib borish bosqichlari
1. O‘qituvchining kirish so‘zi. Bunda o‘qituvchi dars mavzusi, maqsadi va vazifalari, tegishli rollarni bajaruvchi 3 ta «Kompaniya boshliqlari» bilan tanishtiradi.
2. Ilmiy ma’ruzalarni tinglash. «Kompaniya boshliqlari» mavzusi yuzasidan tayyorlangan (masalan, o‘z mahsulotlari yuzasidan) ma’ruzalarni ko‘rgazmali qurollar yoki taqdimot asosida bayon etadi.
3. Ma’ruza muhokamasi. Bunda «Kompaniya boshliqlari» va sinfdagi boshqa o‘quvchilar o‘rtasida mavzu yuzasidan bahs-munozara o‘tkaziladi. Boshqa o‘quvchilar jurnalist sifatida savollar berishadi.
4. Ilmiy konferensiyaning yakuni. O‘qituvchi mavzu yuzasidan eng muhim tushuncha va g‘oyalarni ta’kidlab, yakunlaydi.
5. O‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va reyting tizimiga muvofiq baholanadi.
6. Uyga vazifa berish.
7. Darsni umumiy yakunlash.

Matbuot konferensiyasi sinfdagi barcha o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati faollashuvi bilan ko‘zga tashlanadi.

VI.2. “INSERT” metodi


«INSERT» (I.N.S.E.R.T – Interactive Noting System for Effective Reading and Thinking) metodi o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi. Shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

	«INSERT» metodini olib borish bosqichlari
1.	O‘qituvchi darsga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi.
2.	Yangi mavzu mohiyati yoritilgan matn o‘quvchilarga tarqatiladi va taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi.
3.	O‘quvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydi. Matn bilan ishlashda maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi.
4.	Belgilangan vaqt yakunlangach, o‘quvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

Tushunchalar mazmuni	V (bilgan edim)	– (oldingi bilganlarimga to‘g‘ri kelmaydi)	+ (qiziqarli, men uchun yangi bilim)	? (tushunarsiz, savollarim bor)	! (ko‘proq bilishni xohlardim; meni lol qoldirgan axborot)
1-tushuncha mazmuni					
2-tushuncha mazmuni					

VI.3. “SWOT-tahlil” metodi

Mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



VI.4 «Idrok xaritasi (Mind map)» metodi

Idrok xaritasi (ingl. Mind map – fikrlar xaritasi) – fikrlash jarayonida ma’lumotni inson idrok etishi uchun qulay shaklda – mantiqiy va assotsiativ sxemalarda aks ettirishning grafik metodi.

Idrok xaritasi fikrlash jarayonini aks ettiradi. Jarayon boshlanganda, bitta fikr boshqalarini keltirib chiqaradi. Har qanday g‘oya deyarli barcha yo‘nalishlarda cheksiz rivojlanishi mumkin. Asosiy g‘oya bir necha yirik g‘oyani o‘z ichiga oladi, ularning har biri, o‘z navbatida, undan ham kichik g‘oyalar ko‘rinishida aniqlanadi. Har bir kichik fikr ma’lum bir global fikr bilan uzviy bog‘liq. Ularning hammasini tasvirlash mumkin.Boshqacha aytganda, idrok xaritasi metodi kafolatlangan yakuniy natijani berish imkoniga ega:

– ma’ruza mashg‘ulotlarida yangi bilimlarni bayon qilish (jamoaviy);
– amaliy mashg‘ulotlarida bilimlarni tekshirish, mustahkamlash (kichik guruhlarda);
– mustaqil ta’limda ijodiy ishlash, mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish (individual).



Idrok xaritasi metodini olib borish bosqichlari	
1	Miya bo‘roni. Bu mulohaza mavzusini, ya’ni asosiy mavzuni qidirishni maqsad qiladi. Odatda, xarita markazida – ko‘rsatilgan mavzu, ma’lumot.
2	To‘ldirish. Asosiy g‘oya aniqlanganda, u bilan bog‘liq asosiy mavzularni ajratib ko‘rsatish kerak. Ular qisqa nomlarga ega bo‘lishi va xarita iyerarxiyasini yaratishi lozim. Agar toifalar juda mavhum bo‘lsa, ularga rasmlarni biriktirish kerak: bu assotsiatsiyalarni yaratadi va fikrlarni tez tarqatish imkonini beradi. Xaritaning ikkinchi darajasi — mavzular, g‘oyalar yaratila boshlagan joy. Ikkinchi darajada keltirilgan mavzular bir yoki ikki so‘zdan iborat bo‘lishi kerak. Agar xarita oddiy bo‘lsa (uchinchi darajadan oshmasa), ikkinchi darajada taklif yoki eslatma keltirilishi mumkin.
3	Aniqlashtirish. Uchinchi va undan keyingi darajalar – g‘oyalarni aniqlashtirish jarayoni. Bu yerda tavsifli iboralarni, eslatma va havolalarni ishlatish, shuningdek, xarita elementlarini bir-biri bilan bog‘lash mumkin. Masalan, turli darajadagi har xil g‘oyalar, eslatma va havolalar o‘rtasidagi aloqalarni belgilash mumkin. Buning yordamida xarita mantiqan boyiydi.

Fikr xaritalari qog‘oz yoki mobil ilovalarda tuzilishi mumkin. Qo‘l bilan chizishning qulayligi kamroq, chunki idrok xaritasini to‘ldirish va takomillashtirish jarayonida tarmoqlar ko‘p siljiydi va o‘zgaradi. Ilovalar yordamida buni bir yoki ikki marta bosish orqali amalga oshirish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar yordamida fikrlar xaritasida materialni tasavvur qilish, audio yoki videotarkib bilan to‘ldirish, shuningdek, ushbu elementlarning barchasini ko‘chirish mumkin. Idrok xaritasi bilan ishlash uchun ba’zi mashhur ilovalar: **Bubble.us, Coogle, FreeMind, iMindMap, MindManager, Mindomo, Popplet, SpiderScribe, XMind.**

Idrok xaritasi dars jarayonida olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va tuzishga yordam beradi. Shuningdek, an’anaviy tahlilda o‘tkazib yuborilgan muhim faktlarni ko‘rish imkonini beradigan assotsiativ fikrlashni faollashtirishga yordam beradi. Idrok xaritasi barcha materiallarni bitta mavzu bo‘yicha to‘plash, barcha jihatlarni ko‘rib chiqish va umumiylikni ko‘rish imkonini beradi.

VII. BAHOLASH

VII.1. Baholash turlari

Ta’lim samaradorligi o‘quvchilarning ta’lim olish jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini hayotga tatbiq eta olishi, amaliyotda qo‘llay bilishida namoyon bo‘ladi va unda ta’lim jarayoni sifatini doimiy ravishda nazorat qilish muhim o‘rin tutadi.

Nazorat qilishning asosiy vazifasi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o‘quv materiallarini o‘rganishning keyingi bosqichiga o‘tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi va o‘qituvchining o‘quv metodlarini to‘g‘ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o‘quv materiallarini o‘rganishning eng maqbul yo‘llarini topish bilan bog‘liqdir.

Ta’lim jarayonida nazorat ta’limiy ahamiyatga ega bo‘lishi bilan bir qatorda tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘quvchilar har bir tekshirishga doimiy tayyor bo‘lishi uchun darslarni o‘z vaqtida tayyorlaydi, bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladi, tartib-intizomga o‘rganadi.

Baholash — ta’lim oluvchilarda bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar majmuining shakllanganlik darajasini o‘lchash jarayoni.

Shakllantiruvchi baholash — o‘quvchining o‘quv dasturida berilgan materiallarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash hamda o‘quvchi kutilgan natijaga erishishi uchun tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo‘ladi. Shakllantiruvchi baholash o‘qituvchi uchun o‘quv jarayonidagi bo‘shliqlarni o‘z vaqtida aniqlash va bu bo‘shliqlarni bartaraf etish imkonini yaratadi. Ushbu baholash turi o‘quv dasturi, o‘qituvchi hamda o‘quvchining o‘zaro aloqasini ta’minlashga xizmat qiladi. U ta'limni shakllantirishga yordam beradigan samarali vositalarni o‘z ichiga oladi. Unda o‘quvchilar yozma savol-javoblar, suhbat va boshqalar orqali o‘zlarini, tengdoshlarini, hatto o‘qituvchini baholashlari mumkin.

Shakllantiruvchi baholash jarayonida qabul qilingan standartlarning bajarilishini kuzatish natijasida o‘quvchining yutuqlari yoki sustkashligi qayd etiladi va yuzaga keladigan muammolar aniqlanadi.

Shakllantiruvchi baholash uchun quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

- kuzatish;
- og‘zaki savol-javoblar;
- loyihalar;
- viktorinalar;
- o‘yinlar;
- taqdimotlar;
- guruh faoliyati;
- sinfdagi munozaralar;
- mavzuga oid savollar;
- kichik guruhlar bilan ishlash;
- haftalik viktorinalar;
- 1 daqiqali yozma topshiriqlar;
- uyga vazifalar;
- so‘rovnomalar;
- testlar;
- o‘z-o‘zini baholash topshiriqlari.

Shakllantiruvchi baholashni muntazam ravishda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini bilish uchun har doim qalam va qog‘oz ishlatish shart emas. Buning o‘rniga o‘quvchilarning rivojlanishini baholash uchun o‘yinlar, guruh taqdimotlari va amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish mumkin.

Shakllantiruvchi baholash jarayonidan olingan xulosalar asosida o‘qituvchi yoki ta’lim muassasasi ta’lim jarayoniga zarur deb hisoblangan o‘zgartirishlarni kiritadi. Shakllantiruvchi baholashdan keyin o‘quvchilarga har doim tahliliy fikr-mulohazalar beriladi. Shakllantiruvchi baholash, asosan, kuzatish va natijalarni qayd etib borishga asoslanadi, ya’ni ushbu baholashda jurnalga baho qo‘yish talab etilmaydi. O‘qituvchi o‘z xohishi va maqsadiga ko‘ra, bahoni jurnalga qo‘yish yoki qo‘ymaslikni o‘zi hal qiladi.

Xulosalovchi baholash — o‘quvchining dars davomida o‘rgangan bilimlarini baholash. Xulosalovchi baholash o‘quvchilarning bilimlari, ko‘nikma va malakalarini o‘quv jarayoni so‘ngida yoki ma’lum bir bobni tugatgandan so‘ng baholash imkonini beradi.

Xulosalovchi baholash deyarli har doim rasmiy ravishda baholanadi. Xulosalovchi baholash formativ baholash bilan birlashishtirilsa va moslashtirilsa, katta samara berishi va o‘qituvchilar ushbu yondashuvlarni birlashtirishning turli usullarini ko‘rib chiqishlari mumkin.

Xulosalovchi baholash katta va kichik xulosalovchi baholashlardan iborat.

Katta va kichik xulosalovchi baholash o'quv jarayonining ma'lum bir bosqichida (mavzu, chorak yoki yarim yillik oxirida) o'quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun amalga oshiriladi. Shu bilan birga, standart mazmuniga mos keladigan baholash standartlari asosida ishlab chiqilgan vositalardan foydalaniladi. Xulosalovchi baholash natijalari sinf jurnalida qayd etiladi.

Xulosalovchi baholash uchun quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

- standartlashtirilgan testlar;
- yakuniy loyihalar;
- yakuniy insholar;
- yakuniy taqdimotlar;
- yakuniy hisobotlar;
- yakuniy imtihonlar;
- ijodiy ishlar.

Xulosalovchi baholash har doim kurs oxirida amalga oshiriladi. Ular ko‘pincha kumulyativ bo‘lib, o‘quvchining uzoq muddatli ma'lumotlarni saqlashini baholash uchun ishlatiladi. Bu – o‘quvchilarning bir sinfdan ikkinchisiga muhim ma'lumotlarni saqlab qolishlarini ta'minlashning ajoyib usuli.

Xulosalovchi baholash ikki maqsadga xizmat qiladi.

Birinchidan, o‘rganilgan narsalarini baholaydi.

Ikkinchidan, o‘quvchilarning keyingi akademik darajaga o‘tishga qanchalik tayyor ekanligini baholaydi.

Ko‘plab o‘qituvchilarda shunday savol tug‘iladi — shakllantiruvchi baholash muhimmi yoki xulosalovchi?

Bugungi kunda ular bir xil darajada muhimdir. Shakllantiruvchi baholash o‘quvchilarga nimani o‘rganayotganliklarini, xulosalovchi baholash esa o‘rgangan narsalarini ko‘rsatish imkonini beradi.

VII.2. Nazorat testlari

I bob. SMM — IJTIMOIY MEDIA MARKETING

1. “Mahsulot va xizmatlarni targ‘ib qilish, xaridorlarni jalb qilish hamda mahsulotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish faoliyatini ijtimoiy medialarda amalga oshirish” qanday ataladi?

A) ijtimoiy media;
B) ijtimoiy media marketing;
C) brend;
D) maqsadli auditoriya.

2. Ko‘plab faol foydalanuvchilarga ega internet platforma ... deb ataladi.

A) platforma;
B) maqsadli auditoriya;
C) ijtimoiy media;
D) kontent.

3. Bitta mahsulotning boshqa mahsulotlardan farqlanib turuvchi dizaynga ega belgisi ... deb ataladi.

A) brend;
B) kontent;
C) maqsadli auditoriya;
D) platforma.

4. O‘zining imkoniyati va funksiyalari orqali boshqa tizimlarni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiluvchi “o‘zak dastur” nima?

A) platforma;
B) brend;
C) kontent;
D) ijtimoiy media.

5. Maqsadli loyiha uchun yaratilgan sahifa, videorolik yoki tasvir ... deb ataladi.

A) kontent;
B) platforma;
C) brend;
D) ijtimoiy media.

6. Quyidagilardan qaysi biri “ko‘plab interfaol foydalanuvchilarga ega videoroliklar platformasi”?

A) Youtube;
B) Facebook;
C) Telegram;
D) Instagram.

7. Quyidagilardan qaysi biri “xabarlashish va marketing faoliyatini yurituvchi ijtimoiy tarmoq”?

A) Youtube;
B) Facebook;
C) Telegram;
D) Instagram.

8. Quyidagilardan qaysi biri “onlayn suhbatlashish va turli formatdagi fayllarni almashish tarmog‘i”?

A) Youtube;
B) Facebook;
C) Telegram;
D) Instagram.

9. Quyidagilardan qaysi biri koreys tilidan tarjima qilinganda, “3 ta yulduz” ma’nosini beradi?

A) Apple;
B) Google;
C) Samsung;
D) Instagram.

10. Youtube saytida joylashgan videorolikni qaysi manzil orqali yuklab olish mumkin?

A) http://youtube.com
B) http://utube.uz
C) http://savefrom.net
D) http://download.youtube.com

II bob. SMM LOYIHALARI BILAN ISHLASH

1. Internet tarmog‘ida ijtimoiy media marketingni yurituvchi shaxs kim?

A) SMM mutaxassisi;
B) dizayner;
C) dasturchi;
D) sahifalovchi.

2. Loyiha mavzusiga mos maqsadni ifodalovchi tasvir nima?

A) logotip;
B) brend;
C) platforma;
D) kontent.

3. SMMni internet tarmog‘ida harakatlantirish necha bosqichdan iborat?

A) 5;
B) 4;
C) 6;
D) 3.

4. YouTube saytida kanalga video joylashtirish qanday amalga oshiriladi?

A) videokamera ikonkasini bosib, Upload videoko‘rsatmasi tanlanadi;
B) sozlash tugmachasini bosib, Upload videoko‘rsatmasi tanlanadi;
C) Edit tugmachasini bosib, Upload videoko‘rsatmasi tanlanadi;
D) Add channel artni bosib, Upload videoko‘rsatmasi tanlanadi.

5. YouTube saytida videodan foydalanish huquqlari qaysi bo‘lim orqali ko‘rsatiladi?

A) Visibility;
B) Details;
C) Video elementts;
D) Select files.

6. Facebook tarmog‘ida Edit Page Info sahifasi orqali quyidagilardan qaysi birini amalga oshirish mumkin?

A) sahifa va ma’lumotlarni tahrirlash;
B) foydalanuvchilar va tashrif buyuruvchilar faoliyatini kuzatib borish, amalga oshirgan ishlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar olish;
C) sahifada tugmachalar yaratish;
D) sahifani tahrirlash, guruh ochish, reklama yaratish, sahifa qo‘shish, do‘stlarni taklif etish.

7. Facebook tarmog‘ida Insights sahifasi orqali quyidagilardan qaysi birini amalga oshirish mumkin?

A) sahifa va ma’lumotlarni tahrirlash;
B) foydalanuvchilar va tashrif buyuruvchilar faoliyatini kuzatib borish, amalga oshirgan ishlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar olish;
C) sahifada tugmachalar yaratish;
D) sahifani tahrirlash, guruh ochish, reklama yaratish, sahifa qo‘shish, do‘stlarni taklif etish.

8. Facebook tarmog‘ida Add a button orqali quyidagilardan qaysi birini amalga oshirish mumkin?

A) sahifa va ma’lumotlarni tahrirlash;
B) foydalanuvchilar va tashrif buyuruvchilar faoliyatini kuzatib borish, amalga oshirgan ishlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar olish;
C) sahifada tugmachalar yaratish;
D) sahifani tahrirlash, guruh ochish, reklama yaratish, sahifa qo‘shish, do‘stlarni taklif etish.

9. Telegram tarmog‘ida qanday turdagi kanal(lar)ni ochish mumkin?

A) Public channel va Private channel;
B) Servis channel va Public channel;
C) Chat channel va Private channel;
D) Secret channel va Chat channel.

10. Telegram tarmog‘ida Manage channel orqali qanday ishlarni amalga oshirish mumkin?

A) kanalga logotip o‘rnatish, administratorlarni belgilash;
B) kanalga foydalanuvchilarni qo‘shish;
C) kanalda turli so‘rovnomalarni tashkil etish;
D) kanalga logotip o‘rnatish.

III bob. CMS – KONTENT BOSHQARUV TIZIMLARI

1. Mazmuni (matn, rasm, multimedia va b.) sayt tizimi mexanizmi tomonidan to'ldiriladigan, o'ziga xos dizayn va tuzilmaga ega HTML teglar to'plamidan iborat sahifa bu – … .

A) Template (shablon);
B) kontent;
C) platforma;
D) plugin (plagin).

2. Dastur imkoniyatlarini kengaytirish uchun xizmat qiluvchi qo'shimcha ilova bu – ... .

A) Template (shablon);
B) kontent;
C) platforma;
D) plugin (plagin).

3. CMS platformalar necha guruhga bo'linadi?

A) 2 ta, ochiq kodli va yopiq kodli;
B) 2 ta, yuqori ixtisoslashgan va universal;
C) 2 ta, oddiy va murakkab;
D) bo'linmaydi.

4. Mijozdan kelayotgan so'rovlarni qabul qilib, ularga mos javoblarni jo'natadigan dastur bu – ... .

A) local web-server;
B) kontent;
C) platforma;
D) plugin (plagin).

5. Saytning turli qismlarida joylashgan axborotli yoki funksional blok qanday ataladi?

A) vidgets (vijet);
B) kontent;
C) platforma;
D) plugin (plagin).

6. O'zida fayllar to'plamini saqlagan, web-saytning asosiy grafik interfeysini ifodalovchi WordPress dizayni qanday ataladi?

A) theme;
B) layout;
C) library;
D) widget.

7. WordPressda sayt uchun yangi dizayn qaysi bo'lim orqali o'rnatiladi?

A) Appearance- Themes;
B) Appearance-Customize;
C) Appearance-Widgets;
D) Appearance-Menus.

8. WordPressda saytning yuqori, o'ng, chap, quyi qismlariga elementlar o'rnatish qaysi bo'lim orqali amalga oshiriladi?

A) Appearance- Widgets;
B) Appearance-Theme Editor;
C) Appearance-Header;
D) Appearance-Themes.

9. WordPressda menyuni sozlash qaysi bo'lim orqali amalga oshiriladi?

A) Appearance-Themes;
B) Appearance-Customize;
C) Appearance-Widgets;
D) Appearance-Menus.

10. WordPressda sahifalar kiritish qaysi bo'lim orqali amalga oshiriladi?

A) Pages-Add new;
B) Pages-All pages;
C) Posts-Add New;
D) Pages-Quick edit.

IV bob. LMS — TA'LIMNI BOSHQARUV TIZIMLARI

1. Moodle LMS rasmiy saytini ko'rsating.

A) moodle.org
B) moodle.ru
C) moodle.gov
D) moodle.com

2. MOODLE atamasining kengaytirilgan shaklini ko'rsating?

A) Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment;
B) Management of Objects, Dropping Learn Environment;

C) Most, Often Ordinal, Digital Learning Environment;
D) Modular, Often Ordilan Dynamic Learning Environment.

3. Axborot almashish real vaqtda olib boriladigan internetdagi muloqot qanday ataladi?

A) chat;
B) forum;
C) xabar;
D) seminar.

4. LMS platformalari necha turga bo‘linadi?

A) uch turga;
B) ikki turga;
C) to‘rt turga;
D) besh turga.

5. Quyidagilardan qaysi biri LMSning bulutli platformalari hisoblanadi?

A) Google classroom;
B) Moodle;
C) BlackBoard;
D) LearnDash.

6. Quyidagilardan qaysi biri serverga asoslangan LMS platformalari hisoblanadi?

A) Google classroom;
B) Moodle;
C) Schoology;
D) LearnDash.

7. Google Classroom platformasida o‘quv kursiga kiritilgan materiallar ketma-ketligi bilan tanishish qaysi bo‘lim orqali amalga oshiriladi?

A) Stream;
B) People;
C) Classwork;
D) All Topics.

8. Google Classroom platformasida kurs o‘qituvchilari va kursda ta’lim olayotganlar haqida ma’lumot olishda qaysi bo‘limdan foydalaniladi?

A) Stream;
B) People;
C) Classwork;
D) All Topics.

9. Google Classroom platformasida kurs materiallari bilan tanishish qaysi bo‘lim orqali amalga oshiriladi?

A) Stream;
B) People;
C) Classwork;
D) All Topics.

10 Google Classroom platformasida kurs bo‘yicha kiritilgan mavzular ro‘yxati bilan tanishish qaysi bo‘lim orqali amalga oshiriladi?

A) Stream;
B) People;
C) Classwork;
D) All Topics.

V bob. MOOC – OMMAVIY OCHIQ ONLAYN KURSLAR

1. Internet tarmog‘idan foydalangan holda real vaqt rejimida bilim olishning yangi usuli qanday ataladi?

A) onlayn ta’lim;
B) interfaol ta’lim;
C) offlayn ta’lim;
D) aralash ta’lim.

2. O‘qituvchi bilan yuzma-yuz olib boriladigan an’anaviy ta’lim va onlayn ta’limning birlashtirilgan shakli qanday ataladi?

A) onlayn ta’lim;
B) interfaol ta’lim;
C) offlayn ta’lim;
D) aralash ta’lim.

3. Videorolikning asl tili yoki tarjimasidagi umumiy mazmunni ifodalovchi matn qanday ataladi?

A) titr;
B) subtitr;

C) kontent;
D) audio.

4. Khan Academy bepul onlayn ta’lim platformasining o‘zbek tiliga mahalliylashtirilgan loyihasi manzilini ko‘rsating.

A) https://uz.khanacademy.org/
B) https://xanakademiyasi.uz/
C) https://khanacademy.org
D) https://xanakademiY.org

5 Udacity ommaviy ochiq onlayn kurs manzilini ko‘rsating.

A) https://www.coursera.org/
B) https://www.udemy.com/
C) https://www.udacity.com/
D) https://www.udacity.org/

6. Garvard va Massachusets texnologiya institutlari tomonidan 2012-yilda tashkil etilgan, dunyo bo‘yicha barcha ta’lim oluvchilar uchun yuqori sifatli kurslarni taklif etuvchi platformani ko‘rsating.

A) Coursera;
B) Udemy;
C) EdX;
D) Khan Academy.

7. Ta’limga interfaollik va o‘yin texnologiyalarini olib kirgan ommaviy ochiq onlayn kurs platformasini ko‘rsating.

A) Coursera;
B) Udemy;
C) EdX;
D) Khan Academy.

8. O‘zbek tiliga mahalliylashtirilgan ommaviy ochiq onlayn kurs platformasini ko‘rsating.

A) Coursera;
B) Udemy;
C) EdX;
D) Khan Academy.

9. Quyidagilardan qaysi biri MOOC platformasi hisoblanadi?

A) https://www.coursera.org/
B) https://www.schoology.com/
C) https://www.instagram.com
D) https://freelancer.com

VI bob. WEB-FREELANCE—INTERNET ORQALI DAROMAD OLISH

1. Quyidagilardan qaysi biri qidiruv tizimlarida internet sahifalarni targ‘ib qiluvchi mutaxassis?

A) SEO mutaxassisi;
B) freelancer;
C) SMM mutaxassisi;
D) copyrighter (kopirayter).

2. Quyidagilardan qaysi biri bir martalik yoki mavsumiy xizmatlarni bajarish uchun yollangan, buyurtma asosida qandaydir ish yoki xizmatni kelishilgan haq evaziga belgilangan vaqt davomida amalga oshirib beruvchi shaxs?

A) SEO mutaxassisi;
B) freelancer;
C) SMM mutaxassisi;
D) copyrighter (kopirayter).

3. Quyidagilardan qaysi biri reklama bo‘yicha yangi g‘oyalar o‘ylab topuvchi hamda reklama yoki marketingning boshqa shakllari matnini tuzuvchi shaxs?

A) SEO mutaxassisi;
B) freelancer;
C) SMM mutaxassisi;
D) copyrighter (kopirayter).

4. Tashkilot va jamoatchilik o‘rtasidagi axborot oqimini boshqarish qanday ataladi?

A) PR (public relations);
B) freelancerlik;
C) copyrighter (kopirayter);
D) SEO (qidiruv tizimini optimallashtirish).

5. Internet orqali daromad olish qanday ataladi?

A) PR (public relations);
B) freelance;
C) copyrighter (kopirayter);
D) SEO (qidiruv tizimini optimallashtirish).

6. Quyidagilardan qaysi biri Freelance saytlari hisoblanadi?

A) https://www.coursera.org/
B) https://www.schoology.com/
C) https://www.instagram.com
D) https://freelancer.com

7. Mahalliy freelance saytini ko‘rsating.

A) https://fiverr.com
B) https://freelancer.uz
C) https://www.upwork.com/
D) https://hirelancer.uz/

8. Freelance web-saytlar deb nimaga aytiladi?

A) ish qidirayotganlar va ish beruvchilar o‘z takliflarini joylashtiradigan platformalar;
B) potensial iste’molchi va boshqa manfaatdor tomonlarda tashkilotning ijobiy imijini yaratish jamoasi;
C) reklama bo‘yicha yangi g‘oyalar hamda reklama yoki marketingning boshqa shakllari matni joylashtiriladigan saytlar;
D) qidiruv tizimlarida internet sahifalarni targ‘ib qiluvchi platformalar.

9. Quyidagilardan qay biri kontent menejeri vazifalariga kiradi:

A) saytga ma’lumotlarni kiritish va tahrirlash; kontent uchun maqola, yangilik va anonslar yozish; saytdagi oddiy xatolarni bartaraf etish; saytning muntazam ishlashini ta’minlash va b.;
B) saytlarni yaratish, sahifalash va ularni yuritish; dastur va skriptlarni yozish; mobil ilovalar, o‘yin dasturlari, onlayn xizmatlar kabi turli dasturiy mahsulotlarni yaratish va testlash va b.;
C) ijtimoiy tarmoqlarda yangiliklarni joylashtirish, auditoriya va reklama kompaniyalarini boshqarish; brendni ijtimoiy tarmoqlar orqali boshqarish, xizmat va mahsulotlarni samarali reklama qilish, mahsulot yoki xizmatlar haqida PR maqolalar yozish;
D) ijtimoiy tarmoqlardagi guruh yoki loyihalarni boshqaradigan loyiha administratorlari barcha harakatlarni onlayn kuzatib boradi, jumladan, spam va boshqa reklamalarni olib tashlash; tinglovchilar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish; guruh a’zolarining muloqoti va guruh kayfiyatini kuzatish; ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etish; so‘rov va sharhlarga zudlik bilan javob berish; muhitning samimiy va ijobiyligini kuzatib borish.

VIII. «INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI» FANIDAN DARSLARNI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

VIII.1. Onlayn shaklda dars berish texnologiyasi

Onlayn	O‘qitish shart-sharoiti
I. Tashkiliy qism	TV, YOUTUBE videodarslari, ZOOM web-konferensiya
II. Qiziqtirish (motivatsiya)	
III. Mavzuni tushuntirish	
IV. Mavzuni xulosalash	
V. Mavzuni mustahkamlash	YOUTUBE videodarslari, ta’lim portali (www://dr.rtm.uz), LMS (Google Classroom, Moodle), Ijtimoiy tarmoqlar (telegram, facebook)
VI. Uy vazifasini berish	
VII. Baholash	ZOOM web-konferensiya, LMS (Google Classroom, Moodle), kundalik.com
VIII. Refleksiya	Ijtimoiy tarmoqlar (telegram)

I. Tashkiliy qism.
II. Qiziqtirish (motivatsiya).
III. Mavzuni tushuntirish.
IV. Mavzuni xulosalash.

Tashkiliy qism, qiziqtirish va yangi mavzuni tushuntirish TV, ZOOM yoki avvaldan yozib olinib, internet tarmog‘i (Youtube, Mediabay)ga joylangan videodarslar orqali amalga oshiriladi.

Darsni uzatish usullari	Sanasi va vaqti	Uzatish kanali	Berilgan uy vazifasi
TV			
ZOOM			
Videodarslar **(Youtube, Mediabay)**			

V. Mavzuni mustahkamlash (Feedback – teskari aloqa)

1. Yangi mavzu bo‘yicha o‘quvchilar tomonidan beriladigan savollarni qabul qilish, o‘quvchilar bilan muhokama qilish, o‘zaro fikr almashish uchun ijtimoiy tarmoq messenjerlari (masalan, Telegram) da guruh ochish.

2. Mavzuni mustahkamlash uchun o‘quv materiallari va turli topshiriqlar (ma’ruza, taqdimot, video, audio, infografika, didaktik material, amaliy topshiriq, test va b.)ni tarqatish uchun ijtimoiy tarmoq messenjerlari (masalan, Telegram)da kanal ochish.

3. Yangi mavzu bo‘yicha o‘quvchilar tomonidan beriladigan savollarni qabul qilish, o‘quvchilar bilan muhokama qilish, o‘zaro fikr almashish hamda mavzuni mustahkamlash uchun o‘quv materiallari va turli topshiriqlar (ma’ruza, taqdimot, video, audio, infografika, didaktik material, amaliy topshiriq, test va b.)ni tarqatish uchun LMS (Moodle, Google Classroom) tizimlarida o‘quv kurslarini yaratish.

Teskari aloqani ta’minlash usullari	Manzili	Login va parol yoki kod
Telegram kanali		
Telegram guruhi		
Moodle		
Google Classroom		

VI. Uy vazifasini berish

1. Ijtimoiy tarmoq messenjerlari (masalan, Telegram) kanalida hamda LMS (Moodle, Google Classroom) tizimlarida loyiha ishlari bo‘yicha amaliy topshiriqlar beriladi.

2. LMS (Moodle, Google Classroom) tizimlari orqali test topshiriqlari beriladi.

3. GoogleForm orqali tayyor test topshiriqlari beriladi.

VII. Baholash

1. Loyiha ishlarini ijtimoiy tarmoq messenjerlari (masalan, Telegram), LMS (Moodle, Google Classroom) tizimlari orqali qabul qilib olish va baholash amalga oshiriladi.
2. LMS (Moodle, Google Classroom) tizimlari yordamida test natijalarini olish.
3. GoogleForm yordamida test natijalarini olish.
4. GoogleForm orqali tarqatilgan so‘rovnoma va testlar tahlili amalga oshiriladi. Test topshiriqlari natijasi foiz nisbatida past ko‘rsatkichni ko‘rsatsa, o‘quvchilarga qayta topshirishga imkoniyat beriladi. O‘quvchilar baholari guruhlarda muhokama qilinmaydi, aksincha, butun guruh natijasi foizda e’lon qilinadi.

VIII. Refleksiya

GoogleForm orqali tayyor anketa so‘rovnomalari tarqatiladi. So‘rovnomalar yordamida o‘quvchilar tomonidan mavzularni o‘zlashtirishda qanday muammolar yuzaga kelayotganligi, qaysi metod orqali o‘zlashtirish qiyin kechayotganligi aniqlanadi.

VIII.2. Aralash ta’lim shaklida dars berish texnologiyasi va dars ishlanmalari

1-dars. SMM (SOCIAL MEDIA MARKETING – IJTIMOIY MEDIA MARKETING) HAQIDA

Darsni olib borish texnologiyasi

Maqsad	O‘quvchilarda SMM (Social media marketing – ijtimoiy media marketing), ularning imkoniyatlari haqida tushuncha hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Aralash (nazariy va amaliy).		
Dars rejasi	SMM haqida tushuncha. SMM imkoniyatlari: afzalliklari va kamchiliklari. Brend tushunchasi. SMMning asosiy vazifalari.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• SMM to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish; • SMM tadbirlarini baholashning asosiy usullari, shuningdek, SMM sohasidagi web-tahlil elementlari va vositalari haqida tushunchaga ega bo‘lish; • mahsulotni reklama qilish bo‘yicha tadbirlarni hamda ularni o‘tkazish xarajatlarini rejalashtira olish.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Ijtimoiy media, SMM, brend, maqsadli auditoriya, kontent, platforma.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Bahs-munozara, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash metodi		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 5–9-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	○ kompyuter ○ elektron doska ○ smart doska	○ proyektor ○ televizor ○ kolonkalar	○ www://dr.rtm.uz ○ LMS Google Classroom ○ LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Big Book of Digital Marketing. — Digital Firefly Marketing, 2019, 130 p. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsning texnologik xaritasi

I. Tashkiliy qism

- Salomlashish;
- davomatni aniqlash.



II. Qiziqtirish (motivatsiya)



O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi. Har bir qatorga 1 tadan savol tashlanadi va “bahs-munozara” metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi.

1. SMM deganda nimani tushunasiz?
2. Sizningcha, SMM nima uchun kerak?
3. Brend nima?

Yangi mavzudan oldin o‘quvchilarning shu mavzuga oid bilimlari aniqlab olinadi.

III. Mavzuni tushuntirish



Mavzu yuzasidan asosiy ma’lumotlar beriladi. Yangi mavzu www://dr.rtm.uz manzili yoki QR-kod orqali yuklab olingan taqdimot va videolar yordamida taqdim etiladi. O‘quvchilar, o‘z navbatida, diqqat bilan eshitib, mavzu haqida yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, tayanch tushunchalar, “diqqat” bloki va SMMning imkoniyatlari: afzalliklari va kamchiliklari, SMMning vazifalarini daftarlariga yozib oladi.

IV. Mavzuni mustahkamlash



Mavzuni mustahkamlash uchun “kichik guruhlarda ishlash” hamda “loyihalash” metodidan foydalaniladi. O‘quvchilar qiziqishlarini hisobga olib, kichik guruhlarga bo‘linadi. 7-betdagi amaliy ishni qanday bajarish tushuntiriladi. O‘quvchilar birorta mahsulotni tanlab olib, uni qanday qilib brend darajasiga olib chiqish haqida o‘ylaydi va o‘z g‘oyalarini taqdimot ko‘rinishida namoyish etadi.

V. Baholash



O‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VI. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasi – 7-bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.
Savol va topshiriqlar:

1. Ijtimoiy media nima?
2. Ijtimoiy media marketing deganda nimani tushunasiz?
3. Brend nima?
4. Qanday o‘zbek brendlarini bilasiz?
5. Maqsadli auditoriya deganda nimani tushunasiz?
6. Ijtimoiy media marketingning qanday afzalliklari bor?
7. Ijtimoiy media marketingning qanday kamchiliklari bor?

Amaliy mashg‘ulotda guruh bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni mustaqil ravishda bajarish (individual loyiha tayyorlash), ya’ni har bir o‘quvchi o‘z mahsulotini brend darajasiga olib chiqish g‘oyalarini yozib boradi. Brend uchun logotip yaratishlari lozim. Ushbu jarayonda http://brandcrowd.com saytidan foydalanishlari mumkin. Brend nomini yozish uchun minglab logotiplar taklif etiladi, ular orasidan ma’qulini tanlab olish yoki o‘zgartirish mumkin.

VIII. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

2-dars. SMM PLATFORMALAR BILAN TANISHISH. FACEBOOK TARMOG‘I

Maqsad	O‘quvchilarda SMM (Social media marketing – ijtimoiy media marketing) platformalaridan biri – Facebook tarmog‘ida ro‘yxatdan o‘tish va u bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Aralash (nazariy va amaliy)		
Dars rejasi	Facebook tarmog‘ida ro‘yxatdan o‘tish. Facebook tarmog‘i bo‘limlari bilan ishlash.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• Facebook tarmog‘ida o‘z profilini yarata oladi; • Facebook tarmog‘ida yangiliklar, xabarlar va qidiruv bo‘limlari bilan ishlay oladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Youtube, Facebook, Telegram, Instagram		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Aqliy hujum, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash metodi		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 9–12-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	○ kompyuter ○ elektron doska ○ smart doska	○ proyektor ○ televizor ○ kolonkalar	○ www://dr.rtm.uz ○ LMS Google Classroom ○ LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Suresh Babu. A step-by-step Guide to Modern Digital Marketing. — Web Marketing Academy, 2018, 27 p. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsning texnologik xaritasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.



II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi. O‘quvchilarga savol beriladi va javoblar “Aqliy hujum” metodi yordamida tahlil qilinadi.

1. Facebook platformasi, asosan, qanday ma’lumotlarni tarqatish uchun ishlatiladi?
2. Videoroliklarni joylashtirish uchun qaysi platformadan foydalangan ma’qul?
3. Sizningcha, yaratmoqchi bo‘lgan loyihangiz qaysi platformalarda ko‘proq mijoz yig‘a oladi?

Yangi mavzudan oldin o‘quvchilarning shu mavzuga oid bilimlari aniqlab olinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish

Mavzu yuzasidan asosiy ma’lumotlar beriladi. Yangi mavzu www://dr.rtm.uz sayti orqali yuklab olingan taqdimot va videolar yordamida taqdim etiladi.

O‘quvchilar, o‘z navbatida, diqqat bilan eshitib, mavzu haqida yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, tayanch tushunchalar, «Diqqat» va «Eslab qoling» bloklarini daftarlariga yozib oladi.

V. Mavzuni mustahkamlash

O‘quvchilar avvalgi darsdagi kabi kichik guruhlarga bo‘linadi. 12-betdagi amaliy ishni qanday bajarish tushuntiriladi. Har bir kichik guruhga bittadan mavzu (ya’ni, kompaniya nomi) tarqatiladi.

O‘quvchilar ushbu mavzu ustida izlanish olib borishi, Facebookda ro‘yxatdan o‘tishi, birorta kompaniya sahifasi bilan tanishib, ushbu kompaniya haqida ma’lumot to‘plashlari va taqdimot qilishlari lozim.

VI. Baholash

O‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish

Uy vazifasi – 12-bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.
Savol va topshiriqlar:

1. Facebookda ro‘yxatdan o‘tish uchun qanday ma’lumotlar kerak bo‘ladi?
2. Facebookda do‘stlarni qo‘shishda xavfsizlikka ahamiyat berish kerakmi?
3. Sizningcha, Facebookda shaxsiy xabarlarni nashr etish to‘g‘rimi?
4. Facebook yordamida qanday xabarlarni almashish yoki ulashish mumkin?

Amaliy mashg‘ulotda guruh bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni mustaqil ravishda bajarish (individual loyiha tayyorlash).
Qiziqarli faktni o‘qib chiqib, gapirib berish.

IX. Refleksiya

Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va o‘quvchilar qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

3-dars. SMM PLATFORMALAR BILAN TANISHISH. YOUTUBE SAYTI

Maqsad	O‘quvchilarda SMM (Social media marketing – ijtimoiy media marketing) platformalaridan biri – Youtube saytida ro‘yxatdan o‘tish va u bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Aralash (nazariy va amaliy).		
Dars rejasi	YouTube saytida ro‘yxatdan o‘tish. YouTube saytidan foydalanish.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• YouTube saytida o‘z profilini yarata oladi; • YouTube saytidagi kanallar va ularga joylashtirilgan videolar bilan ishlay oladi; • YouTube saytidan kerakli videorolikni yuklab oladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Youtube, Facebook, Telegram, Instagram.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Munozara, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash metodi.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 13–14-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	○ kompyuter ○ elektron doska ○ smart doska	○ proyektor ○ televizor ○ kolonkalar	○ www://dr.rtm.uz ○ LMS Google Classroom ○ LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Digital Marketing Strategy. — Lyfe Marketing. 2019, 60 p. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsning texnologik xaritasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.



II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi. Har bir qatorga 1 tadan savol tashlanadi va “Munozara” metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi.

1. Videoroliklarni joylashtirish uchun qaysi platformadan foydalangan ma’qul?
2. Sizningcha, yaratmoqchi bo‘lgan loyihangiz qaysi platformalarda ko‘proq mijoz yig‘a oladi?

Yangi mavzudan oldin o‘quvchilarning shu mavzuga oid bilimlari aniqlab olinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish

O‘quvchilarni avvalgi darsdagi kabi kichik guruhlarga bo‘lib, 14-betdagi amaliy ishni qanday bajarishi tushuntiriladi.

O‘quvchilar Yotube ro‘yxatidan o‘tishadi va 2-darsda tanlab olingan kompaniya kanaliga a’zo bo‘lib, kanal videoroliklari bilan tanishib chiqadi. O‘quvchilar ularni yuklab olish hamda kanal faoliyati bilan tanishib chiqish, shuningdek, ushbu kanal haqida ma’lumot to‘plash va taqdimot qilishlari lozim.

V. Mavzuni mustahkamlash

O‘quvchilar avvalgi darsdagi kabi kichik guruhlarga bo‘linadi. 12-betdagi amaliy ishni qanday bajarish tushuntiriladi. Har bir kichik guruhga bittadan mavzu (ya’ni, kompaniya nomi) tarqatiladi.

O‘quvchilar ushbu mavzu ustida izlanish olib borishi, Facebookda ro‘yxatdan o‘tishi, birorta kompaniya sahifasi bilan tanishib, ushbu kompaniya haqida ma’lumot to‘plashi va taqdimot qilishi lozim.

VI. Baholash

O‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish

Uy vazifasi – 14 bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.
Savol va topshiriqlar:

1. YouTube platformasida ro‘yxatdan qanday o‘tiladi?
2. YouTube platformasidagi videoroliklarni yuklab olish mumkinmi?
3. YouTube platformasida ta’lim sohasiga taalluqli videoroliklar mavjudmi?
4. YouTube va Google platformalarining bir-biriga qanday aloqasi bor?

Amaliy mashg‘ulotda guruh bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni mustaqil ravishda bajarish (individual loyiha tayyorlash).

IX. Refleksiya

Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

4-dars. SMM PLATFORMALAR BILAN TANISHISH. TELEGRAM TARMOG‘I

Maqsad	O‘quvchilarda SMM (Social media marketing – ijtimoiy media marketing) platformalaridan biri – Telegram tarmog‘ida ro‘yxatdan o‘tish va u bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Aralash (nazariy va amaliy)		
Dars rejasi	Telegram tarmog‘ida ro‘yxatdan o‘tish. Telegram tarmog‘ini sozlash.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• Telegram tarmog‘ida o‘z profilini yarata oladi; • Telegram tarmog‘idagi chat, bot, kanal va guruh tushunchalarini ajrata oladi; • Telegram tarmog‘idan kerakli manbalarni yuklab oladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Chat, maxfiy chat, guruhli chat, kanal, jamoat kanali, botlar.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Munozara, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash metodi.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 15–17-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	○ kompyuter ○ elektron doska ○ smart doska	○ proyektor ○ televizor ○ kolonkalar	○ www://dr.rtm.uz ○ LMS Google Classroom ○ LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Rob Stokes. eMarketing. — Quirk Education Pty (Ltd), 2013, 305 p. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsning texnologik xaritasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.



II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi. Har bir qatorga 1 tadan savol tashlanadi va javoblar “Munozara” metodi yordamida tahlil qilinadi.

1. Videoroliklarni joylashtirish uchun qaysi platformadan foydalangan ma’qul?
2. Sizningcha, yaratmoqchi bo‘lgan loyihangiz qaysi platformalarda ko‘proq mijoz yig‘a oladi?

Yangi mavzudan oldin o‘quvchilarning shu mavzuga oid bilimlari aniqlab olinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish

Mavzu yuzasidan asosiy ma’lumotlar beriladi. Yangi mavzu www://dr.rtm.uz sayti orqali yuklab olingan taqdimot va videolar yordamida taqdim etiladi. O‘quvchilar, o‘z navbatida, diqqat bilan eshitib, mavzu haqida yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, tayanch tushunchalar, «Diqqat» va «Eslab qoling» bloklarini daftarlariga yozib oladi.

V. Mavzuni mustahkamlash

O‘quvchilarni avvalgi darsdagi kabi kichik guruhlarga bo‘lib, ularga 17-betdagi amaliy ishni qanday bajarish tushuntiriladi.
O‘quvchilar Telegram tarmog‘ida ro‘yxatdan o‘tishadi, loyiha mavzusiga mos kanal va guruhlarga a’zo bo‘lib, ular faoliyatini o‘rganishadi. Shuningdek, ular ushbu kanal haqida ma’lumot to‘plash va taqdimot qilishlari lozim.

VI. Baholash

O‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish

Uy vazifasi – 17 bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.

Savol va topshiriqlar:
1. Telegram tarmog‘ida guruhli chat deganda nimani tushunasiz?
2. Telegram tarmog‘ida botning asosiy vazifasi nimadan iborat?
3. Telegram tarmog‘idagi papkalarning vazifasini aytib bering. Papkalar qanday hosil qilinadi?
4. Ijtimoiy marketingni Telegram tarmog‘ida qanday yuritish mumkin?
Amaliy mashg‘ulotda guruh bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni mustaqil ravishda bajarish (individual loyiha tayyorlash).
O‘quvchilar QR-kod orqali berilgan videorolikni ko‘rib chiqib, shaxsiy profildagi ma’lumotlarni himoyalashni o‘rganishlari lozim.

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

5-dars. SMM PLATFORMALAR BILAN TANISHISH. INSTAGRAM TARMOG‘I

Maqsad	O‘quvchilarda SMM (Social media marketing – ijtimoiy media marketing) platformalaridan biri – Instagram tarmog‘ida ro‘yxatdan o‘tish va u bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Aralash (nazariy va amaliy).		
Dars rejasi	Instagram tarmog‘ida ro‘yxatdan o‘tish. Instagram tarmog‘idan foydalanish. Instagram sahifalarini ko‘rib chiqish va xabarlar bilan tanishish.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• Instagram tarmog‘ida o‘z profilini yarata oladi; • Instagram tarmog‘idagi turli loyihalarni yurituvchi sahifalarni qidirib topa oladi; • Instagram tarmog‘ida xabarlar tasmasi, qiziqardi tasvir va video-xabarlar bilan tanishib chiqa oladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Youtube, Facebook, Telegram, Instagram.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Aqliy hujum, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash metodi.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 18–21-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	○ kompyuter ○ elektron doska ○ smart doska	○ proyektor ○ televizor ○ kolonkalar	○ www://dr.rtm.uz ○ LMS Google Classroom ○ LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Dan Morley. Netmark’s 2016 Guide to the 6 fundamentals of Digital Marketing. — Netmark, 2016, 15 p. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsning texnologik xaritasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.



II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi. O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi va “Aqliy hujum” metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi.

1. Videoroliklarni joylashtirish uchun qaysi platformadan foydalangan ma’qul?
2. Sizningcha, yaratmoqchi bo‘lgan loyihangiz qaysi platformalarda ko‘proq mijoz yig‘a oladi?

Yangi mavzudan oldin o‘quvchilarning shu mavzuga oid bilimlari aniqlab olinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish

Mavzu yuzasidan asosiy ma’lumotlar beriladi. Yangi mavzu www://dr.rtm.uz sayti yoki QR-kod orqali yuklab olingan taqdimot va videolar yordamida taqdim etiladi. O‘quvchilar, o‘z navbatida, diqqat bilan eshitib, mavzu haqida yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, tayanch tushunchalar, «Diqqat» va «Eslab qoling» bloklarini daftarlariga yozib oladi.

V. Mavzuni mustahkamlash

O‘quvchilarni avvalgi darsdagi kabi kichik guruhlarga bo‘lib, ularga 21-betdagi amaliy ishni qanday bajarish tushuntiriladi.

O‘quvchilar Instagram tarmog‘ida ro‘yxatdan o‘tishadi, loyiha mavzusiga mos sahifalarga a’zo bo‘lib, ular faoliyatini o‘rganishadi. Shuningdek, ular ushbu sahifalar haqida ma’lumot to‘plash va taqdimot qilishlari lozim.

VI. Baholash

O‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish

Uy vazifasi – 21 bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.

Savol va topshiriqlar:
1. Instagram tarmog‘ida ro‘yxatdan o‘tishda Facebook akkauntidan foydalanish mumkinmi?
2. Instagram tarmog‘ida brendni tanitish mumkinmi?
3. Instagram tarmog‘ining Facebook, Telegram, Youtubedan farqli jihatlari nimada?
Amaliy mashg‘ulotda guruh bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni mustaqil ravishda bajarish (individual loyiha tayyorlash).
O‘quvchilardan 18-betda berilgan QR-kod manzilidagi videoni ko‘rib chiqish va o‘z fikrlarini bayon etish so‘raladi.

IX. Refleksiya

Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.


6-dars. SMMNI INTERNET TARMOG‘IDA HARAKATLANTIRISH

Maqsad	O‘quvchilarda SMM (Social media marketing – ijtimoiy media marketing)ni internet tarmog‘ida harakatlantirish bosqichlari bo‘yicha tushunchalar hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Aralash (nazariy va amaliy)		
Dars rejasi	SMMni internet tarmog‘ida harakatlantirish. SMM asosida tadqiqot loyihalarini yuritish va uning bosqichlari. SMM mutaxassisi vazifalari.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• SMMni internet tarmog‘ida harakatlantirish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarni biladi; • SMMni internet tarmog‘ida harakatlantirish bosqichlarini aytib bera oladi; • SMM mutaxassisi vazifalarini biladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	SMM mutaxassisi, maqsadli auditoriya, raqobatchilar, qiziqarli takliflar.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Munozara, suhbat, savol-javob, INSERT metodi.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 23–25-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	○ kompyuter ○ elektron doska ○ smart doska	○ proyektor ○ televizor ○ kolonkalar	○ www://dr.rtm.uz ○ LMS Google Classroom ○ LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Big Book of Digital Marketing. — IgnitionOne, Netmining, 2019, 80 p. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsning texnologik xaritasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.



II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi. Har bir qatorga 1 tadan savol tashlanadi va bahs-munozara shaklida javoblar tahlil qilinadi.

1. SMMni internet tarmog‘ida harakatlantirish qanday amalga oshiriladi?
2. SMM loyihalarni yuritishning bosqichlari nimalardan iborat?
3. SMM mutaxassisi qanday talablarga javob berishi kerak?

Yangi mavzudan oldin o‘quvchilarning shu mavzuga oid bilimlari aniqlab olinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish

Mavzu yuzasidan asosiy ma’lumotlar beriladi. Yangi mavzu www://dr.rtm.uz sayti yoki QR-kod orqali yuklab olingan taqdimot va videolar yordamida taqdim etiladi. O‘quvchilarga Internet tizimida SMMni harakatlantirish va SMM mutaxassislari vazifalari haqida ma’lumot beradi.

O‘quvchilar, o‘z navbatida, diqqat bilan eshitib, mavzu haqida yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, tayanch tushunchalar, «Diqqat» va «Eslab qoling» bloklarini daftarlariga yozib oladi.

V. Mavzuni mustahkamlash

O‘quvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydi. O‘quvchilarga 10 minut vaqt beriladi. Belgilangan vaqt yakunlangach, o‘quvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi.

VI. Baholash

O‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

Tushunchalar mazmuni	V (bilgan edim)	– (oldingi bilganlarimga to‘g‘ri kelmaydi)	+ (qiziqarli, men uchun yangi bilim)	? (tushunarsiz, savollarim bor)	! (ko‘proq bilishni xohlardim; meni lol qoldirgan axborot)
1. Maqsadni aniqlash.					
2. Maqsadli auditoriyani aniqlash.					
3. Ijtimoiy media marketing uchun platformani tanlash.					
4. Raqobatchilarni o‘rganish.					
5. Qiziqarli takliflar.					

VII. Mavzuni xulosalash

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish

Uy vazifasi – 25 bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.
Savol va topshiriqlar:

1. SMMni internet tarmog‘ida harakatlantirish uchun maqsad va vazifalarni aniqlashda nimalarga ahamiyat beriladi?
2. Tadqiqot loyihasi uchun maqsadli auditoriya qanday aniqlanadi?
3. Sizningcha, SMM loyihalar faqat bitta platformada yuritilishi kerakmi yoki bir necha platformadami?
4. SMM loyihalarni yuritishda raqobatchilarni o‘rganish qanday ahamiyatga ega?
5. SMM loyihalarni samarali yuritish uchun yana qanday tavsiyalar bera olasiz?

IX. Refleksiya

Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

7-dars. AMALIY ISH. MAQSADGA YO‘NALTIRILGAN TADQIQOT LOYIHASI REJASINI TUZISH

Maqsad	O‘quvchilarda maqsadga yo‘naltirilgan tadqiqot loyihasi rejasini tuzish bo‘yicha ko‘nikma hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Amaliy.		
Dars rejasi	Loyiha rejasini tuzish.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• SMMni internet tarmog‘ida harakatlantirish bo‘yicha loyiha rejasini tuzishni biladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	SMM mutaxassisi, maqsadli auditoriya, raqobatchilar, qiziqarli takliflar		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Suhbat, aqliy hujum, savol-javob		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 25-bet.		
AKT va interfaol vositalar	○ kompyuter ○ elektron doska ○ smart doska	○ proyektor ○ televizor ○ kolonkalar	○ www://dr.rtm.uz ○ LMS Google Classroom ○ LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Наталия Ермолова. Продвижение бизнеса в социальных сетях. Facebook, Twitter, Google+. — M: Альпина Диджитал, 2013. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsning texnologik xaritasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.

II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savol yoziladi. “Aqliy hujum” metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi.

Ijtimoiy medialar orqali qanday tadqiqot loyihalar (mahsulot va xizmat turlari)ni yuritish mumkin?

IV. Mavzuni tushuntirish



O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, 25-betdagi amaliy ishni qanday bajarish tushuntiriladi.

V. Mavzuni mustahkamlash



O‘quvchilar 1-darsdagi kabi kichik guruhlarga bo‘linadi. Ularga o‘qituvchi tomonidan amaliy topshiriqlar tushuntiriladi.
O‘quvchilar avvalgi mavzularda egallagan bilimlari asosida amaliy topshiriqlarni hamkorlikda bajaradi. Har bir guruh o‘zlariga bo‘lib berilgan ishlar bo‘yicha taqdimot tayyorlaydi.

VI. Baholash



O‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

Barcha o‘quvchilarning avvalgi I bob bo‘yicha bajargan individual loyiha ishi taqdimotlari baholanadi.

I bob bo‘yicha oraliq nazorat testi o‘tkaziladi.

VII. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasi – amaliy mashg‘ulotda guruh bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni mustaqil ravishda bajarish (individual loyiha tayyorlash).

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

8-dars. SMM ASOSIDA TADQIQOT LOYIHALARINI BOSHQARISH. YOUTUBE SAYTIDA KANAL OCHISH

Maqsad	O‘quvchilarda Youtube saytida kanal ochish, o‘z tadqiqot loyihalarini harakatlantirish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Aralash (nazariy va amaliy).		
Dars rejasi	YouTube saytida shaxsiy kanal ochish. YouTube saytida shaxsiy kanalni sozlash. YouTube saytida kanalga video joylashtirish.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• YouTube saytida shaxsiy kanal ocha oladi; • YouTube saytida shaxsiy kanalni kerakli holatda sozlay oladi; • YouTube saytida kanalga tadqiqot loyihasiga doir videolarni joylashtira oladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Logotip, kanal ochish, videorolik joylashtirish.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Munozara, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash metodi.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 26–29-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	○ kompyuter ○ elektron doska ○ smart doska	○ proyektor ○ televizor ○ kolonkalar	○ www://dr.rtm.uz ○ LMS Google Classroom ○ LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Дамир Халилов: Манн, Иванов и Фербер. Маркетинг в социальных сетях. Москва; 2013. 2. www://dr.rtm.uz		


Darsning texnologik xaritasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.

II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.



III. Qiziqtirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi. Har bir qatorga 1 tadan savol tashlanadi va “Munozara” metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi.

1. Tadqiqot loyihalarini rivojlantirish uchun nimalarga ahamiyat berish lozim?
2. Videorolikli reklama uchun qaysi SMM platformasini tanlagan ma'qul?
Yangi mavzudan oldin o'quvchilarning shu mavzuga oid bilimlari aniqlab olinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish



Mavzu yuzasidan asosiy ma'lumotlar beriladi. Yangi mavzu www://dr.rtm.uz sayti yoki QR-kod orqali yuklab olingan taqdimot va videolar yordamida taqdim etiladi. O'quvchilar, o'z navbatida, diqqat bilan eshitib, mavzu haqida yangi bilimlarga ega bo'ladi. Shuningdek, tayanch tushunchalar, "Diqqat" va "Eslab qoling" bloklarini daftarlariga yozib oladi.

V. Mavzuni mustahkamlash



O'quvchilarni avvalgi darsdagi kabi kichik guruhlarga bo'lib, 29-betdagi amaliy ishni qanday bajarish tushuntiriladi. O'quvchilar Youtube saytida tadqiqot loyihalari uchun kanal ochadi. Ushbu kanal foni va logotipini o'rnatishadi. Kanalni boshqaruv menyusini shakllantiradi. Videoroliklar joylashtirib, ularga foydalanish huquqlarini o'rnatadi. Shuningdek, amalga oshirgan ishlari haqida ma'lumot to'plashi, skrinshotlar bilan birga taqdimot qilishlari lozim.

VI. Baholash



O'quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O'qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o'quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O'quvchilar xulosani tinglab, o'z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasi – 29 bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.
Savol va topshiriqlar:
1. YouTube saytida kanal qanday ochiladi?
2. YouTube saytida bir nechta kanal ochish mumkinmi?
3. Videorolik tayyorlashda nimalarga ahamiyat berish kerak?
4. Tadqiqot loyihasi doirasida tayyorlangan video qanday joylashtiriladi?
5. YouTube saytidagi videolar bo'yicha mualliflik huquqlarini himoya qilish mumkinmi?
6. Yuklangan videolarni ko'rish auditoriyasini chegaralash mumkinmi?
Amaliy mashg'ulotda guruh bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni mustaqil ravishda bajarish (individual loyiha tayyorlash).
O'quvchilardan 26-betda berilgan QR-kod manzilidagi videoni ko'rib chiqish va o'z fikrlarini bayon etish so'raladi.

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o'quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O'quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o'z faoliyatlarini baholaydi.

9-dars. SMM ASOSIDA TADQIQOT LOYIHALARINI BOSHQARISH. FACEBOOK TARMOG‘IDA SAHIFA OCHISH

Maqsad	O‘quvchilarda facebook tarmog‘ida sahifa ochish, o‘z tadqiqot loyihalarini harakatlantirish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Aralash (nazariy va amaliy).		
Dars rejasi	Facebook tarmog‘ida sahifa ochish. Facebook tarmog‘ida sahifani sozlash.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• Facebook tarmog‘ida sahifa ocha oladi; • Facebook tarmog‘ida sahifani kerakli holatda sozlay oladi; • Facebook tarmog‘ida sahifaga tadqiqot loyihasiga doir ma’lumotlarni joylashtira oladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Ijtimoiy media, SMM, brend, maqsadli auditoriya, kontent, platforma.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Bahs-munozara, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash metodi		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 5–9-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	○ kompyuter ○ elektron doska ○ smart doska	○ proyektor ○ televizor ○ kolonkalar	○ www://dr.rtm.uz ○ LMS Google Classroom ○ LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Big Book of Digital Marketing. — Digital Firefly Marketing, 2019, 130 p. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsning texnologik xaritasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.



II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi. O‘quvchilarga savol tashlanadi va bahs-munozara metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi.

- Facebook tarmog‘ida tadqiqot loyihasi uchun sahifa yaratish qanday amalga oshiriladi?

Yangi mavzudan oldin o‘quvchilarning shu mavzuga oid bilimlari aniqlab olinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish



Mavzu yuzasidan asosiy ma’lumotlar beriladi. Yangi mavzu www://dr.rtm.uz sayti yoki QR-kod orqali yuklab olingan taqdimot va videolar yordamida taqdim etiladi. O‘quvchilar, o‘z navbatida, diqqat bilan eshitib, mavzu haqida yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, tayanch tushunchalar, “Diqqat” va “Eslab qoling” bloklarini daftarlariga yozib oladi.

V. Mavzuni mustahkamlash



O‘quvchilarni avvalgi darsdagi kabi kichik guruhlarga bo‘lib, 32-betdagi amaliy ishni qanday bajarish tushuntiriladi. O‘quvchilar Facebook tarmog‘ida tadqiqot loyihasi uchun sahifa ochadi. Loyiha nomi, toifasi, profil va jild rasmlarini o‘rnatishadi. Sahifaga turli xizmat va funksiyalarni taklif etuvchi tugmachalarni joylashtiradi. Loyihaga oid kontent tayyorlab, sahifaga joylashtiradi. Shuningdek, amalga oshirgan ishlari haqida ma’lumot to‘plashi, skrinshotlar bilan birga taqdimot qilishi lozim.

VI. Baholash



O‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasi – 32 bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.
Savol va topshiriqlar:

1. Facebook tarmog‘ida sahifa nima uchun ishlatiladi?
2. Facebook sahifasida qanday ma’lumotlar nashr ettirilishi mumkin?
3. Facebook sahifasida joylashtirilgan kontentlar uchun qoldirilgan izohlarni kuzatib borish mumkinmi?
4. Loyiha mavzusiga mos qanday Facebook sahifasini yaratish mumkin?
5. Barcha olib borilgan ishlarni tahlil qilish mumkinmi?

Amaliy mashg‘ulotda guruh bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni mustaqil ravishda bajarish (individual loyiha tayyorlash).
O‘quvchilarga 30-betda berilgan QR-kod manzilidagi videoni ko‘rib chiqish va o‘z fikrlarini bayon etish so‘raladi.

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

10-dars. SMM ASOSIDA TADQIQOT LOYIHALARINI BOSHQARISH. TELEGRAM TARMOG‘IDA KANAL OCHISH

Maqsad	O‘quvchilarda telegram tarmog‘ida kanal ochish, o‘z tadqiqot loyihalarini harakatlantirish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Aralash (nazariy va amaliy).		
Dars rejasi	Telegram tarmog‘ida kanal yaratish. Telegram tarmog‘ida kanal bilan ishlash. Telegram tarmog‘ida kanalni sozlash.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• Telegram tarmog‘ida kanal yarata oladi; • Telegram tarmog‘ida kanal bilan ishlay oladi; • Telegram tarmog‘ida kerakli sozlashlarni amalga oshira oladi; • Telegram tarmog‘ida tadqiqot loyihasini yurita oladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Kanal yaratish, chat, xabarlar bilan ishlash.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Aqliy hujum, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash metodi.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 33–35-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	○ kompyuter ○ elektron doska ○ smart doska	○ proyektor ○ televizor ○ kolonkalar	○ www://dr.rtm.uz ○ LMS Google Classroom ○ LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. SMM для поисков / 1ps.ru — «Издательские решения», 2019, 44 с. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsning texnologik xaritasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.

II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.



III. Qiziqtirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi. O‘quvchilarga savol tashlanadi va “Aqliy hujum” metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi.

1. Telegram tarmog‘ida tadqiqot loyihasi uchun kanal yaratish qanday amalga oshiriladi?

2. Telegram tarmog‘ida tadqiqot loyihasi uchun guruh yaratish qanday amalga oshiriladi?
Yangi mavzudan oldin o‘quvchilarning shu mavzuga oid bilimlari aniqlab olinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish



Mavzu yuzasidan asosiy ma’lumotlar beriladi. Yangi mavzu www://dr.rtm.uz sayti yoki QR-kod orqali yuklab olingan taqdimot va videolar yordamida taqdim etiladi. O‘quvchilar, o‘z navbatida, diqqat bilan eshitib, mavzu haqida yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, tayanch tushunchalar, “Diqqat” va “Eslab qoling” bloklarini daftarlariga yozib oladi.

V. Mavzuni mustahkamlash



O‘quvchilarni avvalgi darsdagi kabi kichik guruhlarga bo‘lib, 35-betdagi amaliy ishni qanday bajarish tushuntiriladi. O‘quvchilar Telegram tarmog‘ida tadqiqot loyihasi uchun kanal ochadi. Uning nomi, turi va logotipini o‘rnatishadi. Loyihaga doir kontent tayyorlab kanalga joylashtiradi. Mijozlar talab va takliflarini o‘rganish uchun so‘rovnoma yaratadi. Shuningdek, amalga oshirgan ishlari haqida ma’lumot to‘plashi, skrinshotlar bilan birga taqdimot qilishlari lozim.

VI. Baholash



O‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasi – 35 bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.
Savol va topshiriqlar:
1. Telegram tarmog‘idagi kanal turlari va ularning farqini izohlang.
2. Logotip nima va u nima uchun kerak?
3. Telegram tarmog‘ida qo‘shimcha administrator nima uchun kerak?
4. So‘rovnoma nima? Nima maqsadda kanallarda so‘rovnomadan foydalaniladi?
Amaliy mashg‘ulotda guruh bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni mustaqil ravishda bajarish (individual loyiha tayyorlash).
35-betdagi qiziqarli faktni o‘qib, gapirib berish.
O‘quvchilardan 33-betda berilgan QR-kod manzilidagi videoni ko‘rib chiqish va o‘z fikrlarini bayon etish so‘raladi.

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

11-dars. CMS (CONTENT MANAGEMENT SYSTEMS — KONTENTNI BOSHQARUV TIZIMLARI) HAQIDA

Maqsad	O‘quvchilarda kontentni boshqaruv tizimlari, ularning imkoniyatlari va vazifalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Nazariy-demonstrativ.		
Dars rejasi	CMS haqida tushuncha. CMSning imkoniyatlari: afzalliklari va kamchiliklari. CMSning xususiyatlari.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• Kontentni boshqaruv tizimlari tushunchasiga ega bo‘ladi. • Kontentni boshqaruv tizimlarining imkoniyatlarini aytib bera oladi. • Kontentni boshqaruv tizimlarining xususiyatlarini izohlay oladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Xaker, shablon, sayt yaratish, kontent bilan ishlan.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Aqliy hujum, savol-javob, INSERT metodi.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 37–39-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	○ kompyuter ○ elektron doska ○ smart doska	○ proyektor ○ televizor ○ kolonkalar	○ www://dr.rtm.uz ○ LMS Google Classroom ○ LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Горнаков С. Г. Осваиваем популярные системы управления сайтом (CMS). — М.: DMK Press. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsni olib borish texnologiyasi

I. Tashkiliy qism



- salomlashish;
- davomatni aniqlash.

II. Takrorlash



- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)



O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi. Har bir qatorga 1 tadan savol tashlanadi va “Aqliy hujum” metodi asosida javoblar tahlil qilinadi.

1. CMS deganda nimani tushunasiz?
2. Sizningcha, CMS nima uchun kerak?
3. CMS qanday imkoniyatlarga ega?
4. CMS platformalarini tanlashda nimalarga e’tibor berish lozim?

Yangi mavzudan oldin o‘quvchilarning shu mavzuga oid bilimlari aniqlab olinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish



Mavzu yuzasidan asosiy ma’lumotlar beriladi. Yangi mavzu www://dr.rtm.uz sayti yoki QR-kod orqali yuklab olingan taqdimot va videolar yordamida taqdim etiladi. O‘quvchilarga CMS (content management system — kontentni boshqaruv tizimi) hamda CMSning imkoniyatlari: afzalliklari va kamchiliklari haqida ma’lumot beriladi. O‘quvchilar, o‘z navbatida, diqqat bilan eshitib, mavzu haqida yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, tayanch tushunchalar, “Diqqat” va “Eslab qoling” bloklarini daftarlariga yozib oladi.

V. Mavzuni mustahkamlash



O‘quvchilar individual tarzda CMS xususiyatlari matni bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydi. O‘quvchilarga 10 daqiqa vaqt beriladi. Belgilangan vaqt yakunlangach, o‘quvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi.

Tushunchalar mazmuni	**V (bilgan edim)**	**– (oldingi bilgan-larimga to‘g‘ri kelmaydi)**	**+ (qiziqarli, men uchun yangi bilim)**	**? (tushunarsiz, savollarim bor)**	**! (ko‘proq bilishni xohlardim; meni lol qoldirgan axborot)**
Himoyalanganligi					
Elementlarni qayta o‘zgartirish imkoni-yatining mavjudligi					
Funksiyalar to‘plami va imkoni-yatlari					
Sarlavha, meta-teglar va reklama uchun muhim bo‘lgan boshqa ma’lumotlar bilan ishlashda qulayligi					
Sahifalar va se-mantik URLlar uchun maxsus nomlarni yaratish qobiliyati					
Ish unumdorligi					

Xatolarni to‘g‘rilash qobiliyati					
Sayt xaritasini qo‘llab-quvvatlashi					
Sahifalarni qo‘shish va o‘chirishning qulayligi					

VI. Baholash

O‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

Barcha o‘quvchilarni II bob bo‘yicha bajargan individual loyiha ishi taqdimotlari baholanadi.
II bob bo‘yicha oraliq nazorat testi o‘tkaziladi.

VII. Mavzuni xulosalash

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish

Uy vazifasi – 39 bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.
Savol va topshiriqlar:

1. Kontent boshqaruv tizimlari nima?
2. Kontent boshqaruv tizimlari nima maqsadda qo‘llaniladi?
3. CMSning afzalliklari nimalardan iborat?
4. CMSda qanday kamchiliklar mavjud?
5. Shablon nima?

12-darsda “Konferensiya” metodidan foydalaniladi. O‘quvchilar orasidan 3 ta o‘quvchi tanlab olinadi. Ushbu o‘quvchilar WordPress, Joomla, Drupal platformalari egalari sifatida tayinlanadi. Har bir o‘quvchi o‘z platformasi haqida ma’lumot to‘plab, 13-darsga taqdimot tayyorlab keladi.

IX. Refleksiya

Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

12-dars. CMS PLATFORMALARI BILAN TANISHISH

Maqsad	O‘quvchilarda kontentni boshqaruv tizimlari, ularning turlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Nazariy-demonstrativ.		
Dars rejasi	CMS platformalari turlari: ochiq kodli,yopiq kodli. CMS platformasi bilan tanishish: WordPress, Joomla, Drupal.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• kontentni boshqaruv tizimlari turlarini aytib bera oladi; • kontentni boshqaruv tizimlari platformalari imkoniyatlarini tavsiflay oladi; • kontentni boshqaruv tizimlari platformalari xususiyatlarini izohlay oladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Yopiq kodli platforma, ochiq kodli platforma, plagin.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Aqliy hujum, savol-javob, “Konferensiya” metodi.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 40–43-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	○ kompyuter ○ elektron doska ○ smart doska	○ proyektor ○ televizor ○ kolonkalar	○ www://dr.rtm.uz ○ LMS Google Classroom ○ LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Выбираем систему управления контентом для небольшого предприятия. FIT NGU. —Elashkin Research, 2004, 29 c. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsni olib borish texnologiyasi

I. Tashkiliy qism



- salomlashish;
- davomatni aniqlash.

II. Takrorlash



- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)



O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi. O‘quvchilarga savol tashlanadi va bahs-munozara metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi.

1. CMS platformalari qanday imkoniyatlarga ega bo‘lishi lozim?
2. CMS platformalarida qanday ishlash mumkin?
3. CMS platformalarida yaratilgan qanday saytlarni bilasiz?

Yangi mavzudan oldin o‘quvchilarning shu mavzuga oid bilimlari aniqlab olinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish



Mavzu yuzasidan asosiy ma’lumotlar beriladi. Yangi mavzu www://dr.rtm.uz sayti yoki QR-kod orqali yuklab olingan taqdimot va videolar yordamida taqdim etiladi. O‘quvchilar, o‘z navbatida, diqqat bilan eshitib, mavzu haqida yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, tayanch tushunchalar, “Diqqat” va “Eslab qoling” bloklarini daftarlariga yozib oladi.

V. Mavzuni mustahkamlash



Mavzuni mustahkamlash uchun “Konferensiya” metodidan foydalaniladi. 11-darsda 3 nafar ta o‘quvchiga mavzular taqsimlangan. Ular o‘quvchi (platforma egalari) o‘zlariga berilgan mavzular asosida taqdimot tayyorlashi va uni himoya qilishi lozim bo‘ladi.

Qolgan o‘quvchilar konferensiya ishtirokchilari, jurnalistlar sifatida qatnashadi hamda platforma egalariga turli savollarni berishadi. Platforma egalari savollarga javob beradi. O‘qituvchi tomonidan javoblar to‘ldirilishi mumkin.

VI. Baholash



O‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasi – 43 bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.

Savol va topshiriqlar:

1. Qanday platformalarga ochiq kodli CMS platformalar deyiladi? Ularga misol keltiring.
2. Qanday platformalarga yopiq kodli CMS platformalar deyiladi? Ularga misol keltiring.
3. Korporativ saytlar uchun mo‘ljallangan CMS platformalarni yozing.
4. Internet do‘konlar uchun mo‘ljallangan CMS platformalarni yozing.
5. Reytingi yuqori bo‘lgan CMS platformalarga misollar keltiring. Nima sababdan ularning reytingi yuqori?

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

13-dars. AMALIY ISH. WORDPRESS, JOOMLA, DRUPAL PLATFORMALARI BILAN TANISHISH

Maqsad	O‘quvchilarda Wordpress, Joomla, Drupal platformalari imkoniyatlari haqida bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Amaliy.		
Dars rejasi	Wordpress, Joomla, Drupal platformalari bilan tanishish		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• Wordpress, Joomla, Drupal platformalari imkoniyatlarini tavsiflay oladi; • Wordpress, Joomla, Drupal platformalari rasmiy saytiga kirib, ular haqida ma’lumot olishni biladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	WordPress, Magento, Joomla, Drupal.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Suhbat, aqliy hujum, savol-javob, SWOT tahlil metodi.		
O‘qitish vositalari	taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 44-bet.		
AKT va interfaol vositalar	○ kompyuter ○ elektron doska ○ smart doska	○ proyektor ○ televizor ○ kolonkalar	○ www://dr.rtm.uz ○ LMS Google Classroom ○ LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Выбираем систему управления контентом для небольшого предприятия. FIT NGU. — Elashkin Research, 2004. - 29 c. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsni olib borish texnologiyasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.

II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savol yoziladi. “Aqliy hujum” metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi.

- Wordpress, Joomla, Drupal platformalari yordamida qanday turdagi saytlarni yaratish mumkin?

IV. Mavzuni tushuntirish



O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, har bir guruhga bittadan platformani tahlil qilish topshirig‘i beriladi. O‘qituvchi tomonidan amaliy topshiriqning 1–3, 5-bandlari tushuntirib beriladi.

Har bir kichik guruh o‘zlariga berilgan platforma imkoniyatlarini o‘rganadi, internet yoki rasmiy sayt orqali ma’lumot to‘playdi. SWOT-tahlil yordamida o‘zlariga berilgan platformaning kuchli, kuchsiz, afzal va kamchilik tomonlarini yozadi. Har bir guruh o‘zlariga bo‘lib berilgan ishlar bo‘yicha taqdimot tayyorlaydi.

Strength Kuchli	Weakness Kuchsiz	Opportunity Imkoniyatlari	Threat To‘siqlar

V. Mavzuni mustahkamlash



O‘qituvchi sinf doskasiga 44-betdagi jadvalni chizadi. O‘quvchilar bilan hamkorlikda guruh taqdimoti asosida jadvalni to‘ldirishadi va CMS platformalar qiyosiy tahlilini olib borishadi.

VI. Baholash



O‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasiga amaliy mashg‘ulotda guruh bilan hamkorlikda bajarilgan platformalardan boshqa ixtiyoriy platformani olib, imkoniyatlarini 44-betdagi jadvalga kiritish topshirig‘i beriladi.

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

14-dars. CMSDA MAQSADGA YO‘NALTIRILGAN WEB-SAYTLARNI YARATISH

Maqsad	O‘quvchilarda kontentni boshqaruv tizimlari yordamida maqsadga yo‘naltirilgan web-saytlarni yaratish ko‘nikmalarini hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Aralash (nazariy va amaliy).		
Dars rejasi	CMS platformalari turlari: ochiq kodli, yopiq kodli. CMS platformasi bilan tanishish: WordPress, Joomla, Drupal.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• CMSni o‘rnatish usullari (WordPress misolida); • WordPress.com taklif etgan bepul xosting yordamida sayt yaratish; • OpenServer lokal Web server to‘plamini o‘rnatish; • web-sayt ma’lumotlar bazasini yaratish; • web-sayt domen nomini ro‘yxatdan o‘tkazish; • web-sayt platformasini o‘rnatish.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	local web-server, hosting (xosting), domain (domen) nomi.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Aqliy hujum, savol-javob, Online Lab metodi.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 45–50-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	○ kompyuter ○ elektron doska ○ smart doska	○ proyektor ○ televizor ○ kolonkalar	○ www://dr.rtm.uz ○ LMS Google Classroom ○ LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Выбираем систему управления контентом для небольшого предприятия. FIT NGU. — Elashkin Research, 2004. -29 c. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsni olib borish texnologiyasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.

II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi. O‘quvchilarga savol tashlanadi va “Aqliy hujum” metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi.

1. CMS platformalar qanday o‘rnatiladi?
2. CMS platformalarni o‘rnatish uchun kompyuterlarga qanday texnik talablar qo‘yiladi?

Yangi mavzudan oldin o‘quvchilarning shu mavzuga oid bilimlari aniqlab olinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish



Mavzu yuzasidan asosiy ma’lumotlar beriladi. Yangi mavzu www://dr.rtm.uz sayti yoki QR-kod orqali yuklab olingan taqdimot va videolar yordamida taqdim etiladi. CMS platformalar va ularning tarkibiy qismlari haqida ma’lumot beriladi. CMS platformalaridan biri — WordPressni o‘rnatish usullari tushuntirib beriladi. Taqdimot va videorolik yordamida WordPressni o‘rnatishning ikkinchi usuli tushuntirib beriladi.
O‘quvchilar, o‘z navbatida, diqqat bilan eshitib, mavzu haqida yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, tayanch tushunchalar, “Diqqat” va “Eslab qoling” bloklarini daftarlariga yozib oladi.

V. Mavzuni mustahkamlash



O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, 46–47-betlardagi WordPress.com taklif etgan bepul xosting yordamida sayt yaratish tushuntiriladi.
O‘quvchilar kichik guruhlarda o‘z saytlarini yaratadi. Shuningdek, ular amalga oshirgan ishlari haqida ma’lumot to‘plashi, skrinshotlar bilan birga taqdimot qilishlari lozim.

VI. Baholash



O‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasi – 50 bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.
Savol va topshiriqlar:
1. OpenServer qanday dasturiy ta’minot?
2. OpenServer rasmiy saytining manzili qanday?
3. WordPress.com bilan WordPress.orgning farqli jihatlarini ayting.
4. Ma’lumotlar bazasi qaysi tizim yordamida yaratiladi?
5. Domen nima?
6. WordPress.comdan nima maqsadda foydalaniladi?

Amaliy mashg‘ulotda guruh bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni mustaqil ravishda bajarish (WordPress.com taklif etgan bepul xosting yordamida sayt yaratish — individual loyiha tayyorlash).

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

15-dars. AMALIY ISH. WORDPRESSDA MAQSADGA YO‘NALTIRILGAN WEB-SAYT YARATISH

Maqsad	O‘quvchilarda WordPressda maqsadga yo‘naltirilgan web-sayt yaratish ko‘nikmasini hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Amaliy.		
Dars rejasi	WordPressda maqsadga yo‘naltirilgan web-sayt yaratish		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• Wordpressda maqsadga yo‘naltirilgan web-sayt yaratish usullarini biladi; • web-server o‘rnatishni tavsiflay oladi; • web-sayt uchun ma’lumotlar bazasi yarata oladi; • wordpressda maqsadga yo‘naltirilgan web-sayt yarata oladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Wordpress, Openserver, Webserver.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Munozara, suhbat, savol-javob, loyihalash metodi.		
O‘qitish vositalari	taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 44-bet.		
AKT va interfaol vositalar	○ kompyuter ○ elektron doska ○ smart doska	○ proyektor ○ televizor ○ kolonkalar	○ www://dr.rtm.uz ○ LMS Google Classroom ○ LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Горнаков С. Г. Осваиваем популярные системы управления сайтом (CMS). — M.: DMK Press, 2. 2009, 336 s.www://dr.rtm.uz		

Darsni olib borish texnologiyasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.

II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savol yoziladi.

- Qaysi mavzuda sayt yaratmoqchisiz?

Javoblar bahs-munozara shaklida tahlil qilinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish



O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:
1. Web-server dasturi qanday dastur?
2. Qanday web-server dasturlari mavjud?
3. Ma’lumotlar bazasi nima?
4. Ma’lumotlar bazasi qanday yaratiladi?

“Aqliy hujum” metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi va o‘tgan dars takrorlab olinadi. Amaliy topshiriq bandlari o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

V. Mavzuni mustahkamlash



O‘quvchilar 5–6 ta kichik guruhlarga bo‘linadi. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lish jarayonida “Qaysi mavzuda sayt yaratmoqchisiz?” savoliga bergan javoblari hisobga olinadi va bir xil maqsadli o‘quvchilarni bitta guruhga kiritishga harakat qilinadi.

O‘quvchilar avvalgi mavzularda egallagan bilimlari asosida amaliy topshiriqlarni hamkorlikda bajaradi. Har bir guruh erkin mavzu bo‘yicha, ya’ni o‘zlari maqsad qilgan web-saytni yaratadi va amalga oshirgan ishlari bo‘yicha taqdimot tayyorlaydi.

VI. Baholash



O‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasi – amaliy mashg‘ulotda guruh bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni mustaqil ravishda bajarish. Har bir o‘quvchi individual ravishda o‘z web-saytini yaratishi lozim (individual loyiha tayyorlash).

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

16-dars. WEB-SAYT DIZAYNI BILAN ISHLASH

Maqsad	O‘quvchilarda yaratilgan web-saytining dizaynini sozlash, uning qismlariga element qo‘shish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Aralash.		
Dars rejasi	Web-sayt dizayni bilan ishlash. Web-sayt uchun shablon tanlash. Web-sayt qismlariga element qo‘shish.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• web-sayt uchun shablon tanlay oladi; • web-sayt dizaynini yarata oladi; • web-sayt qismlariga element (vijet) qo‘sha oladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Sayt dizayni, vidgets (vijet).		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Munozara, kichik guruhlarda ishlash, savol-javob, loyihalash metodi.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 51–53-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	○ kompyuter ○ elektron doska ○ smart doska	○ proyektor ○ televizor ○ kolonkalar	○ www://dr.rtm.uz ○ LMS Google Classroom ○ LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Горнаков С. Г. Осваиваем популярные системы управления сайтом (CMS). — М.: DMK Press, 2009. -336 с. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsni olib borish texnologiyasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.

II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)



O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi. Har bir qatorga 1 tadan savol tashlanadi va javoblar bahs-munozara shaklida tahlil qilinadi.

1. Sayt dizayni qanday bo‘lishi lozim?
2. Sayt dizaynini sozlashda tayyor shablondan foydalansa bo‘ladimi?
3. Sayt uchun menyular qanday shakllantiriladi?

Yangi mavzudan oldin o‘quvchilarning shu mavzuga oid bilimlari aniqlab olinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish



Mavzu yuzasidan asosiy ma’lumotlar beriladi. Yangi mavzu www://dr.rtm.uz sayti orqali yuklab olingan taqdimot va videolar yordamida taqdim etiladi. O‘qituvchi tomonidan taqdimot va videorolik yordamida web-sayt dizayni bilan ishlash, web-sayt dizayni uchun mavzu (shablon) tanlash, sayt sarlavhasini o‘rnatish, qismlariga elementlar (vijetlar) o‘rnatish tushuntiriladi.

O‘quvchilar, o‘z navbatida, diqqat bilan eshitib, mavzu haqida yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, tayanch tushunchalar, “Diqqat” va “Eslab qoling” bloklarini daftarlariga yozib oladi.

V. Mavzuni mustahkamlash



O‘quvchilarni avvalgi darsdagi kabi 5–6 ta kichik guruhlarga ajratiladi. Har bir o‘quvchi o‘z guruhiga tushishi kerak, ya’ni ishni o‘z guruhida davom ettirishi lozim. O‘quvchilar kichik guruhlarda quyidagi ishlarni amalga oshirishlari zarur:

1. O‘tgan darsda yaratilgan maqsadga yo‘naltirilgan saytlari uchun nom o‘ylab topish.
2. Web-sayt uchun logotip tayyorlash.
3. Web-saytning umumiy tuzilishi, maketini chizish.
4. Web-saytda elementlar ro‘yxati va o‘rnini shakllantirish.

Amalga oshirgan ishlari bo‘yicha taqdimot tayyorlaydi.

VI. Baholash



O‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasi – 53 bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.

Savol va topshiriqlar:

1. Web-saytning dizayni nima?
2. Web-saytga shablon qanday o‘rnatiladi?
3. Web-sayt nomi va logotipi qaysi bo‘lim orqali tahrirlanadi?
4. Vijetlar nima va ular qanday maqsadda ishlatiladi?
5. Shablon kodlarini o‘zgartirish mumkinmi, agar mumkin bo‘lsa, qaysi bo‘lim orqali o‘zgartiriladi?

Amaliy mashg‘ulotda guruh bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni mustaqil ravishda bajarish (individual loyiha tayyorlash).

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

17-dars. AMALIY ISH. WORDPRESSDA WEB-SAYT DIZAYNI BILAN ISHLASH

Maqsad	O‘quvchilarda WordPressda maqsadga yo‘naltirilgan web-sayt dizaynini yaratish ko‘nikmasini hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Amaliy.		
Dars rejasi	Wordpressda web-sayt dizayni bilan ishlash.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• maqsadga yo‘naltirilgan web-sayt uchun shablon tanlay oladi; • web-sayt logotipi va dizaynini (fon, tasvir va h. k.) shakllantira oladi; • web-sayt umumiy tuzilmasi va maketini yarata oladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Web-sayt maketi, web-sayt logotipi, web-sayt shabloni.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash metodi.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 53-bet.		
AKT va interfaol vositalar	○ kompyuter ○ elektron doska ○ smart doska	○ proyektor ○ televizor ○ kolonkalar	○ www://dr.rtm.uz ○ LMS Google Classroom ○ LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Горнаков С. Г. Осваиваем популярные системы управления сайтом (CMS). — М.: DMK Press, 2009. -336 с. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsni olib borish texnologiyasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.

II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savol yoziladi.

- Web-sayt dizayni yorqin ranglardan iborat bo‘lish kerakmi yoki aksincha?

Javoblar bahs-munozara shaklida tahlil qilinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish



O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:
1. Web-sayt logotipi nima?
2. Web-sayt umumiy tuzilmasi, maketi deganda nimani tushunasiz?
3. Web-sayt qanday elementlar (vijetlar)dan iborat bo‘lishi mumkin?

“Aqliy hujum” metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi va o‘tgan dars takrorlab olinadi. Amaliy topshiriq bandlari o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

V. Mavzuni mustahkamlash



O‘quvchilar avvalgi darsdagi kabi 5–6 ta kichik guruhlarga ajratiladi. Har bir o‘quvchi o‘z guruhiga tushishi kerak, ya’ni ishni o‘z guruhida davom ettirishi lozim. O‘quvchilar avvalgi mavzularda egallagan bilimlari asosida amaliy topshiriqlarni hamkorlikda bajaradi. Har bir guruh o‘zlari maqsad qilgan web-sayt dizaynini ishlab chiqadi va amalga oshirgan ishlari bo‘yicha taqdimot tayyorlaydi.

VI. Baholash



Har bir guruh web-saytining dizayni baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasi – amaliy mashg‘ulotda guruh bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni mustaqil ravishda bajarish. Har bir o‘quvchi individual ravishda o‘z web-sayti dizaynini yaratishi lozim (individual loyiha tayyorlash).

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

18-dars. WEB-SAYT TARKIBI BILAN ISHLASH

Maqsad	O‘quvchilarda yaratilgan web-sayt tarkibi bilan ishlash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Aralash (nazariy va amaliy).		
Dars rejasi	Web-sayt tarkibini shakllantirish. Web-saytni kontentlar bilan to‘ldirish. Web-sayt menyularini shakllantirish.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• Kontent tayyorlay oladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Menyu, kontent		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Munozara, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash metodi.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 54–57-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	o kompyuter o elektron doska o smart doska	o proyektor o televizor o kolonkalar	o www://dr.rtm.uz o LMS Google Classroom o LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Горнаков С. Г. Осваиваем популярные системы управления сайтом (CMS). — М.: DMK Press, 2009. -336 с. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsni olib borish texnologiyasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.

II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi. Har bir qatorga 1 tadan savol tashlanadi va “Munozara” metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi.

1. Sayt sahifalariga qanday ma’lumotlar joylashtiriladi?
2. Sayt sahifalariga audio va video ma’lumotlarni ham joylashtirish mumkinmi?

Yangi mavzudan oldin o‘quvchilarning shu mavzuga oid bilimlari aniqlab olinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish



Mavzu yuzasidan asosiy ma’lumotlar beriladi. Yangi mavzu www://dr.rtm.uz sayti orqali yuklab olingan taqdimot va videolar yordamida taqdim etiladi. O‘qituvchi tomonidan taqdimot va videorolik yordamida web-sayt tarkibi bilan ishlash, web-sayt tarkibini shakllantirish, web-sayt tarkibini kontentlar bilan to‘ldirish, web-sayt menyularini shakllantirish tushuntiriladi. O‘quvchilar, o‘z navbatida, diqqat bilan eshitib, mavzu haqida yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, tayanch tushunchalar, “Diqqat” va “Eslab qoling” bloklarini daftarlariga yozib oladi.

V. Mavzuni mustahkamlash



O‘quvchilar avvalgi darsdagi kabi 5–6 ta kichik guruhlarga ajratiladi. Har bir o‘quvchi o‘z guruhiga tushishi kerak, ya’ni ishni o‘z guruhida davom ettirishi lozim. O‘quvchilar kichik guruhlarda quyidagi ishlarni amalga oshirishlari lozim:

1. Avvalgi darslarda yaratilgan maqsadga yo‘naltirilgan saytlar tarkibini shakllantirish. Web-sayt uchun sahifalar nomlari o‘ylab topiladi.
2. Web-sayt sahifalari uchun matn muharririda kontentlar tayyorlash. Kontentlar tayyorlashda matn muharrirlari, grafik muharrirlar, video muharrirlar, audio muharrirlar va boshqalardan foydalanish mumkin.
3. Web-sayt menyularini shakllantirish. Sahifalar menyularga taqsimlanadi.

Amalga oshirgan ishlari bo‘yicha taqdimot tayyorlaydi.

VI. Baholash



Har bir guruh web-saytining dizayni baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasi – 57 bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.

Savol va topshiriqlar:

1. Sahifa saytga qanday kiritiladi?
2. Mediakontent nima?
3. Sayt sahifalarini o‘zgartirish mumkinmi?
4. Menyu nima va u saytning qaysi qismlarida uchrashi mumkin?
5. Menyu elementlari nima maqsadda ishlatiladi?

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

19-dars. AMALIY ISH. WORDPRESSDA WEB-SAYT TARKIBI BILAN ISHLASH

Maqsad	O‘quvchilarda WordPressda web-sayt tarkibi bilan ishlash ko‘nikmasini hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Amaliy.		
Dars rejasi	Wordpressda web-sayt tarkibi bilan ishlash.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• maqsadga yo‘naltirilgan web-saytga sahifa va xabarlar qo‘sha oladi; • web-saytga audio, video, tasvir va matnli kontentlarni joylashtira oladi; • web-sayt menyu elementlarini shakllantira oladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Web-sayt maketi, web-sayt menyusi, web-sayt kontenti.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Suhbat, munozara, aqliy hujum, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash metodi		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 53-bet.		
AKT va interfaol vositalar	o kompyuter o elektron doska o smart doska	o proyektor o televizor o kolonkalar	o www://dr.rtm.uz o LMS Google Classroom o LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Горнаков С. Г. Осваиваем популярные системы управления сайтом (CMS). — М.: DMK Press, 2009. -336 с. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsni olib borish texnologiyasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.

II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi.

1. Web-saytda qanday sahifalar bo‘lishi lozim?
2. Web-sayt menyusi nima va qanday elementlardan iborat bo‘lishi lozim?

Javoblar bahs-munozara shaklida tahlil qilinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish



O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:
1. Web-sayt sahifalari qanday kiritiladi?
2. Web-sahifalar kontentlar bilan qanday to‘ldiriladi?
3. Web-sayt menyusini shakllantirish qaysi bo‘lim orqali amalga oshiriladi?

“Aqliy hujum” metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi va o‘tgan dars takrorlab olinadi. Amaliy topshiriq bandlari o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

V. Mavzuni mustahkamlash



O‘quvchilar avvalgi darsdagi kabi 5–6 ta kichik guruhlarga ajratiladi. Har bir o‘quvchi o‘z guruhiga tushishi kerak, ya’ni ishni o‘z guruhida davom ettirishi lozim. O‘quvchilar avvalgi mavzularda egallagan bilimlari asosida amaliy topshiriqlarni hamkorlikda bajaradi. Har bir guruh o‘zlari maqsad qilgan web-sayt tarkibini shakllantirib, kontentlar bilan to‘ldirishadi va amalga oshirgan ishlari bo‘yicha taqdimot tayyorlaydi.

VI. Baholash



Har bir guruh web-saytining dizayni baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasi – amaliy mashg‘ulotda guruh bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni mustaqil ravishda bajarish. Har bir o‘quvchi individual ravishda o‘z web-sayti kontentini yaratishi lozim (individual loyiha tayyorlash).
Qiziqarli fakt bo‘limini o‘qib, gapirib berish.

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

20-dars. LMS (LEARNING MANAGEMENT SYSTEMS – TA’LIMNI BOSHQARUV TIZIMLARI) HAQIDA.

Maqsad	O‘quvchilarda ta’limni boshqaruv tizimlarida ta’lim olish faoliyati haqida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Aralash (nazariy va amaliy).		
Dars rejasi	Masofaviy o‘qish va LMS haqida tushuncha. LMSda ta’lim olish imkoniyatlari: afzalliklari va kamchiliklari. LMSning asosiy vazifalari.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• ta’limni boshqaruv tizimlari haqidagi tushunchaga ega bo‘ladi; • ta’limni boshqaruv tizimlarining imkoniyatlarini aytib bera oladi; • ta’limni boshqaruv tizimlarining vazifalarini izohlay oladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	LMS, administrator, chat, forum.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Aqliy hujum, savol-javob, Insert metodi.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 60–62-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	o kompyuter o elektron doska o smart doska	o proyektor o televizor o kolonkalar	o www://dr.rtm.uz o LMS Google Classroom o LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Электронная образовательная среда Moodle. Инструкция пользователя. — VGUIES, 2015: 34 стр. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsni olib borish texnologiyasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.

II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi. Har bir qatorga 1 tadan savol tashlanadi va “Aqliy hujum” metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi.

1. Masofaviy o‘qitish deganda nimani tushunasiz?
2. LMS nima, u haqida nimalarni bilasiz?
3. LMSning qanday imkoniyatlari mavjud?

Yangi mavzudan oldin o‘quvchilarning shu mavzuga oid bilimlari aniqlab olinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish



Mavzu yuzasidan asosiy ma’lumotlar beriladi. Yangi mavzu www://dr.rtm.uz sayti yoki QR-kod orqali yuklab olingan taqdimot va videolar yordamida taqdim etiladi. O‘quvchilarga ta’limni boshqaruv tizimlari (LMS) hamda MOOCning imkoniyatlari: afzalliklari va kamchiliklari haqida ma’lumot beriladi.

O‘quvchilar, o‘z navbatida, diqqat bilan eshitib, mavzu haqida yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, tayanch tushunchalar, “Diqqat” va “Eslab qoling” bloklarini daftarlariga yozib oladi.

V. Mavzuni mustahkamlash



O‘quvchilar individual tarzda LMS tizimlarining asosiy vazifalari matni bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali INSERT jadvali asosida ifodalaydi. O‘quvchilarga 10 daqiqa vaqt beriladi. Belgilangan vaqt yakunlangach, o‘quvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi. (INSERT jadvali dr.rtm.uz saytida berilgan).

VI. Baholash



Har bir guruh web-saytining dizayni baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

Barcha o‘quvchilarni III bob bo‘yicha bajargan individual loyiha ishi taqdimotlari baholanadi. III bob bo‘yicha oraliq nazorat testi o‘tkaziladi.

VII. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasi – 62-bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.
Savol va topshiriqlar:
1. Masofaviy o‘qish deganda nimani tushunasiz?
2. LMS qanday tizim?
3. Sizga o‘qitishning qaysi turi ma’qul: an’anaviymi yoki masofaviy?
4. Masofaviy o‘qitishning an’anaviy o‘qitishdan farqli jihatlarini aytib bering.
5. LMS qanday afzalliklarga ega?
6. LMSning kamchiliklari nimalardan iborat?

21-darsda “Konferensiya” metodidan foydalaniladi. O‘quvchilar orasidan 5 nafar o‘quvchi tanlab olinadi. Ular Schoology, iSpring Learn, Google Classroom, Moodle, LearnDash LMS platformalari egalari sifatida tayinlanadi. Har bir o‘quvchi o‘z platformasi haqida ma’lumot to‘plab, taqdimot tayyorlab keladi.

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

21-dars. LMS PLATFORMALARI TURLARI VA VAZIFALARI

Maqsad	O‘quvchilarda ta’limni boshqaruv tizimi platformalari turlari, uning vazifalari haqida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Aralash (nazariy va amaliy).		
Dars rejasi	LMS ning bulutli platformalari. Serverga asoslangan LMS platformalar. CMS bilan integrallashgan LMS platformalar. LMS platformalari bilan tanishish		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• LMSning bulutli platformalari haqida bilimga ega bo‘ladi; • LMS platformalari bilan tanishadi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	LMS, bulutli platforma, korporativ.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Munozara, savol-javob, konferensiya metodi.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 63–67-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	o kompyuter o elektron doska o smart doska	o proyektor o televizor o kolonkalar	o www://dr.rtm.uz o LMS Google Classroom o LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Электронная образовательная среда Moodle. Инструкция пользователя. — VGUIES, 2015. 34 стр. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsni olib borish texnologiyasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.

II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)



O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi. Har bir qatorga 1 tadan savol tashlanadi va bahs-munozara yordamida javoblar tahlil qilinadi.

1. LMS platformalarining qanday turlari bor?
2. Qanday platformalar bulutli platformalar deb ataladi?
3. Serverga asoslangan platformalar qanday ishlaydi?

Yangi mavzudan oldin o‘quvchilarning shu mavzuga oid bilimlari aniqlab olinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish



Mavzu yuzasidan asosiy ma’lumotlar beriladi. Yangi mavzu www://dr.rtm.uz sayti yoki QR-kod orqali yuklab olingan taqdimot va videolar yordamida taqdim etiladi. O‘quvchilar, o‘z navbatida, diqqat bilan eshitib, mavzu haqida yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, tayanch tushunchalar, “Diqqat” va “Eslab qoling” bloklarini daftarlariga yozib oladi.

V. Mavzuni mustahkamlash



Mavzuni mustahkamlash uchun “Konferensiya” metodidan foydalaniladi. 20-darsda 5 nafar o‘quvchiga mavzular taqsimlangan. Ular (platforma egalari) o‘zlariga berilgan mavzular asosida taqdimot tayyorlashi va uni himoya qilishi lozim bo‘ladi. Qolgan o‘quvchilar konferensiya ishtirokchilari, jurnalistlar sifatida qatnashadi hamda platforma egalariga turli savollarni berishadi. Platforma egalari savollarga javob beradi. O‘qituvchi tomonidan javoblar to‘ldirilishi mumkin.

VI. Baholash



O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasi – 67-bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.
Savol va topshiriqlar:

1. LMS platformalari nimaga xizmat qiladi?
2. Bulutli LMS platformalari qanday prinsip asosida ishlaydi?
3. Serverga asoslangan LMS platformalarida o‘quv kurslarining ma’lumotlari qayerda saqlanadi?
4. Bulutli LMS platformalariga misollar keltiring. Masalan, Google Classroom, ….
5. Serverga asoslangan LMS platformalariga misollar keltiring. Masalan, Moodle, ….
6. CMS bilan integratsiyalashgan LMS platformalariga misollar keltiring. Masalan, LearnDash,…

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

22-dars. AMALIY ISH. SCHOOLOGY, ISPRING LEARN, GOOGLE CLASSROOM, MOODLE, LEARNDASH PLATFORMALARI BILAN TANISHISH

Maqsad	O‘quvchilarda Schoology, iSpring Learn, Google Classroom, Moodle, LearnDash platformalari haqida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Amaliy.		
Dars rejasi	Schoology, Ispring Learn, Google Classroom, Moodle, Learndash platformalari bilan tanishish.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• Schoology, Ispring Learn, Google Classroom, Moodle, Learndash platformalari imkoniyatlarini tavsiflay oladi; • Schoology, Ispring Learn, Google Classroom, Moodle, Learndash platformalari rasmiy saytiga kirib, ularda masofadan ta’lim olishni biladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	LMS, Schoology, iSpring Learn, Google Classroom, Moodle, LearnDash.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Munozara, aqliy hujum, savol-javob, SWOT tahlili.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 68-bet.		
AKT va interfaol vositalar	o kompyuter o elektron doska o smart doska	o proyektor o televizor o kolonkalar	o www://dr.rtm.uz o LMS Google Classroom o LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Электронная образовательная среда Moodle. Инструкция пользователя. — VGUIES, 2015. -34 с. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsni olib borish texnologiyasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.

II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savol yoziladi.

- Siz qaysi ta’lim turini ma’qullaysiz? Nima uchun?

Javoblar bahs-munozara shaklida tahlil qilinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish



O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:
1. LMS platformalarining qanday turlari mavjud?
2. LMS platformalarining rasmiy saytlari manzillarini bilasizmi?

“Aqliy hujum” metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi va o‘tgan dars takrorlab olinadi. Amaliy topshiriq bandlari o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

V. Mavzuni mustahkamlash



O‘qituvchi internet tizimidan bugungi kunda reytingi yuqori bo‘lgan LMS saytlarni izlab topadi. O‘quvchilarni 5 ta kichik guruhga bo‘ladi. Har bir guruhga bittadan platformani tahlil qilish topshirig‘ini beradi.

Har bir kichik guruh o‘zlariga berilgan platforma imkoniyatlarini o‘rganadi, internet yoki rasmiy sayt orqali ma’lumot to‘playdi. SWOT-tahlil yordamida o‘zlariga berilgan platformaning kuchli, kuchsiz, afzallik va kamchilik tomonlarini yozadi. Har bir guruh o‘zlariga bo‘lib berilgan ishlar bo‘yicha taqdimot tayyorlaydi.

Strength Kuchli	Weakness Kuchsiz	Opportunity Imkoniyatlari	Threat To‘siqlar

VI. Baholash



O‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasi – amaliy mashg‘ulotda guruh bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni mustaqil ravishda bajarish. Har bir o‘quvchi individual ravishda o‘zi xohlagan LMS platformasi bo‘yicha SWOT tahlilini yaratishi lozim (individiual loyiha ishi).

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

23-dars. LMS ASOSIDA MASOFAVIY TA’LIM OLISH. MOODLE PLATFORMASI

Maqsad	O‘quvchilarda ta’limni boshqaruv tizimi (Moodle platformasi) yordamida masofaviy ta’lim olish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Aralash (nazariy va amaliy).		
Dars rejasi	Moodle platformasi haqida tushuncha. Moodle platformasida ta’lim olish.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• Moodle platformasi imkoniyatlarini tavsiflay oladi; • Moodle platformasida o‘ziga kerakli kursni tanlay oladi; • Moodle platformasi o‘quv kursida masofadan tahsil olishni biladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Demo versiyasi, ochiq kodli dasturiy ta’minot.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Aqliy hujum, savol-javob, kichik guruhda ishlash, idrok xaritasi.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 69–71-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	o kompyuter o elektron doska o smart doska	o proyektor o televizor o kolonkalar	o www://dr.rtm.uz o LMS Google Classroom o LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Электронная образовательная среда Moodle. Инструкция пользователя. — VGUIES, 2015. -34 с. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsni olib borish texnologiyasi

I. Tashkiliy qism



- salomlashish;
- davomatni aniqlash.

II. Takrorlash



- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)



O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savollar yoziladi. O‘quvchilarga savol tashlanadi va “Aqliy hujum” metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi.

1. LMS platformalarida ro‘yxatdan o‘tish qanday bajariladi?
2. LMS platformalarida nazorat topshiriqlarini bajarish mumkinmi?
3. LMS platformalarida o‘qituvchi yoki do‘stlar bilan muloqot olib borish mumkinmi?

Yangi mavzudan oldin o‘quvchilarning shu mavzuga oid bilimlari aniqlab olinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish



Mavzu yuzasidan asosiy ma’lumotlar beriladi. Yangi mavzu www://dr.rtm.uz sayti yoki QR-kod orqali yuklab olingan taqdimot va videolar yordamida taqdim etiladi. Moodle platformasi haqida ma’lumot beriladi. Taqdimot va videorolik yordamida Moodle platformasi bilan ishlash va ta’lim olish tushuntirib beriladi.

O‘quvchilar, o‘z navbatida, diqqat bilan eshitib, mavzu haqida yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, tayanch tushunchalar, “Diqqat” va “Eslab qoling” bloklarini daftarlariga yozib oladi.

V. Mavzuni mustahkamlash



O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi. Idrok xaritasi yordamida Moodle platformasida ta’lim olish jarayoni yoritiladi.

Har bir kichik guruh o‘zlariga berilgan platforma imkoniyatlarini o‘rganadi, internet yoki rasmiy sayt orqali ma’lumot to‘playdi. Amalga oshirgan ishlari bo‘yicha taqdimot tayyorlaydi.

VI. Baholash



O‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan taqdimotlari baholanadi. O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasi – 71 bet, takrorlash uchun savollarga javob yozish.

Savol va topshiriqlar:

1. Moodle platformasida ro‘yxatdan o‘tish uchun qaysi ma’lumotlar talab etiladi?
2. Moodle platformasida kalendar nima uchun ishlatiladi?
3. Moodle platformasida tilni almashtirish qanday amalga oshiriladi?
4. Ochiq kodli dasturiy ta’minot deb nimaga aytiladi?
5. Moodle so‘zining kengaytmasi qanday va ma’nosi nima?

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

24-dars. AMALIY ISH. MOODLE PLATFORMASIDA TA’LIM OLISH

Maqsad	O‘quvchilarda ta’limni boshqaruv tizimlari (Moodle platformasi) yordamida masofaviy ta’lim olish ko‘nikmalarini hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Amaliy.		
Dars rejasi	Moodleda ro‘yxatdan o‘tish va kursni tanlash. Kurs materiallari bilan tanishish. Nazorat topshiriqlarini topshirish. Online muloqot qilish.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• Moodle platformasida o‘ziga kerakli kursni tanlay oladi; • Moodle platformasida o‘quv kursida masofadan tahsil olishni biladi; • Moodle platformasida topshiriqlarni bajarish hamda onlayn muloqot qilishni biladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Modul, kurs elementi, topshiriqlar, nazorat testi.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Munozara, aqliy hujum, savol-javob, idrok xaritasi metodi.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 71-bet.		
AKT va interfaol vositalar	o kompyuter o elektron doska o smart doska	o proyektor o televizor o kolonkalar	o www://dr.rtm.uz o LMS Google Classroom o LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Электронная образовательная среда Moodle. Инструкция пользователя. — VGUIES, 2015. -34 c. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsni olib borish texnologiyasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash.

II. Takrorlash

- uy vazifasi tekshiriladi;
- savol-javoblar uyushtiriladi.

III. Qiziqtirish (motivatsiya)



O‘quvchilarni dars mavzusi bilan qiziqtirish. Sinf doskasida sana, mavzu va qiziqtirish uchun savol yoziladi.

- Onlayn ta’lim tizimlaridan bugungi kun o‘quvchisi foydalana olishni bilishi kerakmi?

Javoblar bahs-munozara shaklida tahlil qilinadi.

IV. Mavzuni tushuntirish



O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:
1. Moodle platformasining rasmiy manzilining nima?
2. Moodle platformasining DEMO versiyasi necha daqiqa ishlaydi?
3. Moodle platformasida qanday topshiriq turlari mavjud?

“Aqliy hujum” metodi yordamida javoblar tahlil qilinadi va o‘tgan dars takrorlab olinadi. Amaliy topshiriq bandlari o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

V. Mavzuni mustahkamlash



O‘quvchilar avvalgi mavzularda egallagan bilimlari asosida amaliy topshiriqlarni bajaradi. Moodle platformasiga kirib, o‘quv kursiga a’zo bo‘ladi.
1. https://moodle.org/ orqali Moodlening rasmiy manzilga kirish.
2. Yoki ta’lim muassasi server kompyuteriga o‘rnatilgan Moodle platormasini ishga tushirib, login va parol asosida kirish.
3. O‘z login, parollarini yon daftar yoki daftarlariga qayd etib qo‘yish.

O‘quvchilar platformada joylashtirilgan o‘quv materiallari, videodarslar, amaliy topshiriqlar va nazorat testlari bilan tanishib chiqadi. Boshqa o‘quvchilar bilan onlayn muloqot qiladi.

VI. Baholash



O‘qituvchi darsdagi faolligi hamda savol-javoblardagi ishtiroklariga qarab o‘quvchilarni baholaydi.

VII. Mavzuni xulosalash



Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qilinadi. O‘quvchilar xulosani tinglab, o‘z fikrlarini aytadilar.

VIII. Uy vazifasini berish



Uy vazifasi – Moodle platformasidagi biror o‘quv kursi tarkibini idrok xaritasi yordamida tasvirlash (individual loyiha ishi). O‘qituvchi tomonidan idrok xaritasini tuzish tushuntirib beriladi.

IX. Refleksiya



Refleksiya kartochkalari yordamida darsning borishi, o‘quvchilar tomonidan tushunilishi va ularning qiziqishi aniqlanadi. O‘quvchilar dars haqidagi fikrlarini bildiradi va o‘z faoliyatlarini baholaydi.

25-dars. LMS ASOSIDA MASOFAVIY TA’LIM OLISH. GOOGLE CLASSROOM PLATFORMASI

Maqsad	O‘quvchilarda SMM (Social media marketing – ijtimoiy media marketing), uning imkoniyatlari haqida tushuncha hosil qilish.		
Dars turi (shakli)	Aralash (nazariy va amaliy).		
Dars rejasi	SMM haqida tushuncha. SMM imkoniyatlari: afzalliklari va kamchiliklari. Brend tushunchasi. SMM ning asosiy vazifalari.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• SMM to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladi; • SMM tadbirlarini baholashning asosiy metodlari, shuningdek, SMM sohasidagi web-tahlil elementlari va vositalari haqida tushunchaga ega bo‘ladi; • mahsulotni reklama qilish bo‘yicha tadbirlarni hamda ularni o‘tkazish xarajatlarini rejalashtira oladi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Ijtimoiy media, SMM, brend, maqsadli auditoriya, kontent, platforma.		
O‘qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruhda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Bahs-munozara, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash metodi.		
O‘qitish vositalari	Taqdimot, videodarslar, refleksiya kartochkalari (har bir o‘quvchi uchun), darslik: 5–9-betlar.		
AKT va interfaol vositalar	o kompyuter o elektron doska o smart doska	o proyektor o televizor o kolonkalar	o www://dr.rtm.uz o LMS Google Classroom o LMS Moodle
Adabiyotlar va internet resurslari	1. Big Book of Digital Marketing. — Digital Firefly Marketing, 2019. -130 p. 2. www://dr.rtm.uz		

Darsni olib borish texnologiyasi

I. Tashkiliy qism

- salomlashish;
